

665.6/4(075.8)

А 94

O.B. AXMEDOVA, N.S. MAXMUDOVA

NEFT VA GAZ KIMYOSI VA FIZIKASI LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI.
BUXORO MUHANDISLIK -TEKNOLOGIYA INSTITUTI

O.B. Axmedova, N.S. Maxmudova

**NEFT VA GAZ KIMYOSI
VA FIZIKASI
LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI**

O'QUV QO'LLANMA

BUXORO – 2024
«DURDONA» nashriyoti

35.514ya73
665.6/7(075.8)
A 90

O.B.Axmedova, N.S.Maxmudova.

Neft va gaz kimyosi va fizikasi laboratoriya mashg'ulotlari [Matn] :
o'quv qo'llanma / O.B.Axmedova, N.S.Maxmudova. – Buxoro: «Sadriiddin
Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2024. – 168 b.

UO'K 665.6/7(075.8)
BBK 35.514ya73

TAQRIZCHILAR:

G'.R.Bozorov
S.B.Usmonov

– "NGQIT" kafedra professori, t.f.d.
– Neft va gaz sanoati kolleji direktori.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 -
yil 1 - avgustdagi "277" - sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida chop
etishiga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 277-098*

ISBN 978-9910-04-976-7

© O.B.Axmedova, N.S.Maxmudova

O'QUV QO'LLANMA

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	6
« Neft va gaz kimyosi va fizikasi » laboratoriyasida ishlash qoidalari.....	7
Laboratoriyada rioya qilinishi kerak bo'lgan xavfsizlik texnikasi qoidalari.....	10
Zaharli, oson alanganadigan va portlovchi moddalar bilan ishlash.....	11

1-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neft va neft mahsulotlarining zichligini turli usullarda aniqlash 16	
Gaz zichligini tarozida tortish usuli bilan aniqlash.....	20
Effuzion usul yordamida gazni zichligini aniqlash.....	22

2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neft va neft mahsulotlarining qovushqoqligini aniqlash.....	30
---	----

3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neft mahsulotlarining qotish haroratini aniqlash.....	35
---	----

4-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neftning fraksion tarkibini aniqlash.....	39
---	----

5-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neftdagi suv miqdorini aniqlash.....	49
--------------------------------------	----

6-LABORATORIYA MAHG'ULOTI.

Neft mahsulotlari tarkibidagi aromatik uglevodorodlar miqdorini aniqlash.....	56
--	----


7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neft mahsulotlari tarkibidagi to'yinmagan uglevodorodlar miqdorini aniqlash.....	
---	--

8 – LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

Neftning kislota sonini aniqlash.....	68
---------------------------------------	----

O'QUV QO'LLANMA



"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari .	71
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi " fanidan nazorat test savollari	77
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari .	83
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari .	89
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi fanidan nazorat test savollari...	95
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari	107
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari	113
"Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan nazorat test savollari	119
ILOVALAR.....	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	161

АННОТАЦИЯ

Mazkur "Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma neft va gaz xomashyosi va mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, tuzilishi hamda qo'shimcha birikma va komponentlarining miqdorini sifat va miqdoran aniqlashning laboratoriya usullari keltirilgan.

«Neft va gaz kimyosi va fizikasi» fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60721100 – Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari, ishlab chiqarish korxonalari laboratoriya xodimlari uchun ham foydali bo'lishi mumkin. O'quv qo'llanmaning o'ziga xosligi shundan iboratki, neft va neft mahsulotlarining zichligini turli usullarda aniqlash, neft va neft mahsulotlarining qovushqoqligini aniqlash, neft mahsulotlarining qotish haroratini aniqlash, neftning fraksion tarkibini aniqlash, neftdagi suv miqdorini aniqlash, neft mahsulotlari tarkibidagi aromatik uglevodorodlar miqdorini aniqlash, neft mahsulotlari tarkibidagi to'yinmagan uglevodorodlar miqdorini aniqlash, neftning kislota sonini aniqlash qisqa, sodda va ravon tilda, ixchamlashtirib berilgan.

SO'ZBOSHI

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim tizimining oliy ta'lim sohasi uzliksiz ta'lim tizimining yuqori bo'g'ini hisoblanib, u juda muhim va har tomonlama barkamol talaba shaxsini tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07 iyul 2022 yildagi PQ-309-son «Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida neft va gaz sanoatini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, mazkur sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish, kadrlarni o'qitishning usul va shakllarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq qilish maqsadida neft va gaz sohasi uchun ishlab chiqarish korxonalari ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy talablar asosida xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni ta'minlash talab etiladi.

Hozirgi kunda yoshlarning asosiy o'qilayotgan fanlarga nisbatan faolligini oshirish, talabalarning fikrlash va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olishlari uchun kerakli sharoitlar yaratib berilmoqda. Qayd etilgan muammolarni amalga oshirish esa barcha talabalarning asosiy vazifasi va maqsadlaridan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanma mualliflarning bir necha yillik ilmiy-pedagogik tajribasi asosida yozilgan bo'lib, neft va gaz kimyosidan laboratoriya ishlarini o'tkazishda oliygoh talabalari uchun mo'ljallangan. Nashrdan maqsad neft va gaz fizikasi va kimyosidan tajriba va nazariy bilimlar orasidagi bog'liqligini talabalar uchun to'g'ri tushuntirishga yordamlashishdir. Laboratoriya ishlari talabalarda qiziqishni oshirishga va ma'ruza materiallarini atroflicha tushunishga yordam beradi.

Mualliflar o'quv qo'llanmani yaxshilashga qaratilgan barcha tanqidiy taklif va fikr-mulohazalarni, e'tirozlarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

«NEFT VA GAZ KIMYOSI VA FIZIKASI» LABORATORIYASIDA ISHLASH QOIDALARI

Neft va gaz va kimyosi va fizikasi laboratoriyasida amaliy tajribalar o'tkazishda yonuvchan, yengil alanganuvchan suyuqlik va gazlar, kuchli kislota, ishqorlar hamda zaharli moddalar bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. Shuning uchun avvalo o'tkaziladigan tajriba mazmunini puxta o'rgangan holda quyidagi ko'rsatmalarga rioya qilish va biror baxtsiz hodisa ro'y bersa, tezda birinchi yordam choralarini ko'rish lozim.

1. Oson uchuvchan va tez alanganuvchan suyuqliklar (efirlar, benzol, toluol, spirt, aseton va boshqalar) solingan sklyankalarni alangadan uzoqroqda saqlash kerak.

2. Benzol, spirt, efir, skipidar, aseton, etil bromid, metil yodit kabi yengil uchuvchan, tez alanganadigan suyuqliklarni qizdirishda ularni spirt lampasida qizdirmay, qaytarma sovitkich o'rnatilgan kolbalarni yopiq elektr plitkalarda qizdiriladigan suv, qum va moyli hammomlarda o'rnatib qizdirish lozim.

3. Oson alanganuvchan moddalar birorta stakan (kolba) ichida yonib ketsa, idish og'zini darhol shisha, chinni qopqoq bilan bekitish lozim.

Agar yonayotgan suyuqlik stol ustiga yoki polga to'qilib ketsa (yonsa) uni darhol qum sepib o'chirish zarur. Tajriba vaqtida u chiqib ketsa, darhol ishni to'xtatib, elektr asboblarni tarmoqdan uzish, yonayotgan spirt lampalarini o'chirish lozim. Oson alanganuvchi suyuqliklar o't olib ketganda suv sepish yaramaydi, bunda alangani qum yoki o't o'chirgichdan foydalanib o'chirish kerak. Tajriba o'tkazayotgan kishiga yengil alanganuvchi moddalarning bug'i o'tirib, yonib ketsa darhol junli adyol bilan o'rash lozim.

4. Agar kishining biror yeri alangadan yoki qaynoq suvli eritmadan kuysa, kuygan joyini 0,5 % li kaliy permanganatning eritmasi yoki etil spirti bilan ko'p marta yuvish, so'ngra osh

tuzining to'yingan eritmasi shimdirilgan paxta qo'yib bog'lash kerak.

5. Yonuvchan gazlarning havo bilan aralashmasi portlochan bo'ladi. Shuning uchun, ayniqsa, vodorod, kislorod, metan, etilen, asetilen kabi gazlar bilan ishlashda aralashuvchi moddalarni nisbatiga alohida etibor berish kerak.

6. Portlashi mumkin bo'lgan natriy, kaliy metallari, ularning asoslari bilan tajribalarda himoya ko'z oynagini taqib, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ishlash lozim. Metall holiday natriy va kaliyni yog'och probka bilan bekitiladigan kerosinli yoki toluolli bankada saqlanadi. Shunday metallar bilan tajriba o'tkazishda qisqichda metallning kichik bo'lakchasini olib, filtr qog'ozi orasida quritib, so'ngra pichoq yordamida oksid pardasidan tozalab ishlatiladi, natriy, kaliy metall qoldiqlarini rakovinaga yoki axlat chelagiga tashlash mumkin emas, chunki ozgina suv tegishi bilan shiddatli reaksiya ketib portlashi mumkin.

7. Kuchli kislota, ishqorlar bilan ishlashda, ularni bir idishdan, ikkinchisiga quyishda nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Kuchli ishqor KOH, NaOH eritmalari ko'z kipriklariga kuchli ta'sir qiladi; kislotalarni suyultirishda, ayniqsa, sulfat kislotani suvga tomchilatib quyish kerak.

8. Suyuqlikli probirkani qizdirayotganda uning og'zini o'zingizdan va o'rtoqlaringizdan boshqa tomonga qaratib ishleng.

9. Agar kiyimga yoki biror joyimizga konsentrlangan kislota tegsa, qattiq og'riydi, qiyin tuzalanadigan yara hosil bo'ladi. Kislota ta'sirida kuygan joyni avval yaxshilab ko'p miqdorda suv bilan, so'ngra esa 3 % li natriy bikarbonat eritmasi bilan yuvish kerak. Ishqor ta'sirida kuygan joy avval yaxshilab suv bilan, so'ngra esa sirka kislotaning 1 % eritmasi bilan yuviladi. Agar kuchli kislota yoki ishqorning konsentrlangan eritmalari to'kilsa, u holda yuqoridagi choradan so'ng kuygan joyga kaliy

permanganat eritmasida ho'llangan paxta qo'yib bog'lash kerak. Agar ko'zga ishqor tomchilari sachrasa, ko'z darhol ko'p miqdorda suv bilan, keyin borat kislotaning to'yingan eritmasi bilan yuviladi. Agar ko'zga kislota sachrasa, avvalo ko'p miqdorda suv, so'ngra 3 % bikarbonat eritmasi bilan yuvish kerak.

10. Zaharli o'yuvchi organik moddalar (fenol, brom va boshqalar) teriga tushganda terini suv bilan yuvish yordam bermaydi. Bunday holatda terini o'ziga mos erituvchilar (spirt, benzol) bilan yuvish kerak. Erituvchini ishlatishda nihoyatda tezkorlik bilan yuvish, ayniqsa terida ko'p erituvchi qoldirmaslik kerak, aks holda erituvchilarning konsentratsiyasini oshishi, teriga zaharli moddalarning so'rilishini tezlashtiradi. Teri brom ta'sirida kuyganda, kuygan joyni ko'p miqdorda spirt bilan yuvib, keyin kuyganda qo'yiladigan malham surtish kerak. Teri fenol ta'siridan kuyganda terini rangi normal holatga kelguncha glitserin shimdirilgan paxta bilan artiladi.

11. Simob bilan ishlashda, nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Tajriba davomida termometr sinsa yoki simob to'kilsa, uni maxsus usullar bilan yig'ib olib to'kilgan joyga oltiingugurt sepish kerak.

12. Agar tajriba vaqtida shisha idish sinib ishlayogan kishining biror yerini kesib ketsa kesilgan joydan shisha maydalarini olib tashlash, so'ngra yod surkab shu joyga sterillangan doka yoki gigroskopik paxta qo'yib bint bilan siqib bog'lash kerak.

13. Zaharli moddalar – asetilen, nirobenzol, sirka angidrid bilan tajribalarni mo'rili shkafda o'tkazish kerak.

14. Noma'lum moddani aniqlashda uni tatib ko'rish yaramaydi, moddaning hidini aniqlashda qo'l bilan yelpib hidlash kerak.

Kuyganda va zaharlanganda hamma vaqt zarar ko'rgan kishiga birinchi yordam ko'rsatilgach, darhol shifokorga murojaat qilish kerak.

15. Birinchi yordam berish uchun zarur bo'lgan barcha dorilar – paxta, bint, plastir, kuyganda qo'yiladigan malham dori, yod eritmasi, kanakunjo't moyi kaliy permanganat temir(III) xlorid, spirt, tamaki, borat, sirka kislotalar eritmasi, novshadil spirti, glitserin va boshqalar laboratoriyada oson olinadigan joyga qo'yilishi kerak.

LABORATORIYADA RIOYA QILINISHI KERAK BO'LGAN XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI

Laboratoriyada ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lmasligi uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak.

1. Laboratoriyada o't o'chirgich, jun material, himoya ko'zoynagi, rezinka qo'lqoplari va yashikda kum bo'lishi kerak.
2. Elektr asboblari sim bilan yerga ulangan bo'lishi kerak.
3. Laboratoriyada ikkita eshik (biri zapas) bo'lgani ma'qul.
4. Tajriba tugagach gaz, suv va elektr asboblarini o'chirish kerak.

5. Natriy va kaliy metallarini bankadan kerosin, benzol yoki toluolda saqlash lozim. Ular qisqich bilan olinib, filtr qog'oz ustida skalpel yordamida mayda bo'laklarga bo'linadi.

Natriy va kaliy metallarining mayda bo'laklari, qolgan filtr qog'ozlarni rakovinaga va axlat chelagiga tashlash kat'iy man etiladi, chunki u yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Ularni maxsus idishlarga solish yoki spirda eritib yuborish kerak.

6. Oson uchuvchan va tez yonuvchan organik erituvchilar (etil efir, metil spirt, etil spirt, benzol, toluol, aseton, benzin, petroley efir va x.k.) saqlanadigan idish ogzini ochik holda

alanga yoki elektr plitkalar oldida qoldirish man etiladi. Bunday eritmalarni laboratoriyada bir litrdan ko'p saqlash mumkin emas.

7. Reaksiya olib borilayotgan probirka va kolbani qizdirish zarur bo'lsa, qizdirilayotgan idishning ogzini odam ishlamayotgan tomonga qaratish kerak.

8. Tajriba o'tkazilayotganda asbobning ulangan joylarini kuzatib turish kerak.

9. Suyukliklarni yopiq sistemali haydash asbobida haydash mumkin emas, aks holda haydash asbobi yorilishi mumkin. Shuning uchun yig'gich idish ochiq bo'lishi kerak.

10. Suvzatkich suvi shisha sovutgichlarga rezina naylar orqali ulanadi, ulangan yerlarni bog'lab qo'yish kerak. Suvzatkich jumragini ochishda jo'mrakni sekin burash kerak, aks holda nayda yig'ilib kolgan havo bosim bilan chikib, shisha sovutgichni sindirishi mumkin.

11. Moy hammomidan foydalaniladigan bo'lsa, tajribani faqat mo'rili shkafda o'tkazish kerak. Hammomni moyning qaynash xaroratigacha qizdirish mumkin emas. Undagi termometrning ko'rsatkichining ko'tarilishi-ni ximoya ko'zoynagidan foydalanib kuzatish kerak.

12. Talabalar laboratoriyadagi reaktivlarga, idishlarga va asbob – uskunalarga rahbarlarning ruxsatisiz tegishi mumkin emas.

13. Laboratoriya eshigida, «Laboratoriyaning ko'zdan kechiring!» degan yozuvlar bo'lishi kerak.

ZAHARLI, OSON ALANGALANADIGAN VA PORTLOVCHI MODDALAR BILAN ISHLASH

Laboratoriyalarda organik moddalarni sintez qilishda zaharli, oson uchuvchan, oson alanganadigan, portlovchi reaktiv va erituvchilar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun ishlatiladigan organik moddalarning xossalari bilish ish

jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning oldini oladi.

Reaksiya uchun olingan reaktivlarning xossalarini bilish bilan birga reaksiyada hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlarning, shuningdek so'ngi mahsulotlarning xususiyatlarini ham bilgan ma'qul. Bu bilan tajriba o'tkazayotgan talaba birinchidan, o'zining sog'ligini saqlasa, ikkinchidan atrofidagilarni va muhitni zaharlanishidan saqlaydi.

Organik moddalarni sintez qilishda ishlatiladigan moddlarning ko'pi zaharli hisoblanadi. Masalan, dioksan, tetragidrofuran, yog'och spirti, piridin, akrilonitril, benzol, anilin, xlorangidridlar, sianid kislota va uning tuzlari fosgen, uglerod va azot oksidlari, diazometan, vodorod sulfid, simob, brom va boshqalar. Bunday moddalar bilan ishlashda quyidagilarga amal qilish kerak.

1. Ko'p miqdordagi zaharli moddlar bilan qilinadigan ishlar maxsus xonalarda olib boriladi.

2. Laboratoriyada zaharli moddalar bilan ishlashda, birinchi navbatda, mo'rili shkafning ishlashi, yig'ilgan asbobning ulangan yerlari mustahkam bo'lishi va sintezda ishlatiladigan tomizgich, ajratgich voronkalarining jo'mraklari puxta o'rnatilgan bo'lishi kerak.

3. Zaharli moddalarni ulchashda yoki tarozida tortishda rezina qo'lkop kiyishi, himoya ko'zoynagi taqish, ulardan foydalanib bo'lgandan keyin esa sovunlab yuvish kerak.

4. Zaharli moddalarni yoki eritmalarni laboratoriyada qoldirish mumkin emas, ularni ishlatib bo'lgandan so'ng laborantga topshirish shart.

5. Oson alanganuvchan organik moddalar bilan ishlashda nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Etil efir, spirt, petroley efir, benzol, benzin, ligroin va boshqalar shular jumlasidandir.

6. Oson alanganuvchan moddalarni ochiq alangada qizdirish, alanga yaqinida saqlash man etiladi, faqat usti berk maxsus elektr plitkalarda, suv hammomda qizdirish va haydash mumkin.

7. Etil efirni haydashda yig'gich idish yaqinida hech qanday alanga manbai bo'lmasligi kerak.

8. Oson alanganuvchan moddalarni va erituvchilarni salqin va ventilator o'rnatilgan omborlarda saqlash lozim. Ularni issiq xonalarda, termostat va isitish batareyalari oldida saqlash man etiladi.

9. Zaharli va oson alanganuvchan moddalar koldiklarini rakovinaga, axlat idishga to'kish man etiladi. Ularni mo'rili shkaf tagiga quyilgan maxsus idishlargagina quyish kerak.

10. Oson alanganuvchan moddalar bilan tajriba o'tkazilayotgan xonada chekish qati'yan man etiladi.

11. Gazometrga vodorod yoki boshqa yonuvchi gazlar to'ldirilayotganda atrofda alanga bo'lmasligi kerak.

12. Konsentrlangan nitrat kislotaga oson alanganuvchan moddalar qo'shish man etiladi.

13. Konsentrlangan kislotalar, ishkoriy metallar, ayrim organik moddlar tajriba vaqtida hamda reaksiya yuqori va past bosimda olib borilishi natijasida portlashi mumkin. Shuning uchun bunday tajribalarda himoya ko'zoynagini taqishdan tashqari, organik shishadan yasalgan himoya ekrani ham qo'yish lozim.

14. Natriy amidi, natriy va kaliy metallarini suv bilan aralastirmaslik kerak, ask holda reaksiya shiddatli borib portlash, yong'in va ko'ngilsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun natriy solib quritilgan efir suv hammomida emas, balki havo hammomida haydaladi.

15. Moddalarning erish haroratini aniqlashda konsentrlangan sulfat kislotaga solingan asbobdan foydalaniladi.

Bunday asbob ichidagi aralashma qattiq kizib ketish natijasida baʼzan kislota sachrashi mumkin bunday tajribalarda ximoya koʻzoynagi takish kerak.

16. Baʼzi erituvchilar (dietil efir, siklogeksan va boshqalar) uzoq turish natijasida peroksid birikmaga aylanib qoladi. Shuning uchun bunday eritmalarini reaksiya uchun ishlatishdan oldin tekshirish kerak.

Buning uchun 1 ml erituvchiga KI ning kislotali eritmasidan 1 ml quyilganda yod tufayli eritma qoʻngʻir rangga boʻyalishi peroksidning borligini koʻrsatadi. Eritma tarkibidagi peroksidni yuqotish uchun unga oʻyuvchi natriy yoki oʻyuvchi kaliy taʼsir ettiriladi.

Kuyganda, yonganda, zaharlanganda va boshqa koʻngilsiz hodisalar roʻy berganda birinchi yordam koʻrsatish:

1. Har bir loybaratoriyada aptechka boʻlishi shart, uning qaerda joylashganligini va undan kanday foydalanishni talabalar bilishi lozim.

Aptechkada yodning spirtidagi 3 – 5 % eritmasi, soda, borat kislota, sirka kislotaning 1 % li eritmasi, paxta, sterillangan bint, oddiy bint, leykoplastir, kaliy permanganat eritmasi, glitserin, vazelin, kuyganga surtiladigan maz, novshadil spirt, yurak dorisi, bosh va qorin ogʻriganda ichiladigan dorilar boʻlishi lozim.

2. Issiqlik taʼsiridan kuygan joyga tezda spirt yoki kaliy permanganat eritmasi bilan xoʻllangan paxta qoʻyiladi.

3. Koʻzga yoki badanning boshqa biror joyiga kislota sachrasa, usha joyni dastlab yaxshilab suv bilan, soʻngra sodaning 3 % li eritmasi bilan yuviladi.

4. Ishqor sachraganda esa dastlab suv bilan yaxshilab, soʻngra sirka kislotaning 1 % li eritmasi bilan yuviladi.

5. Brom taʼsirida kuygan joy spirt bilan yuviladi.

6. Laboratoriya yongʻin chiqishi bilan u yerdagi alanga manbalarining hammasi uchiriladi, oson alanganiladigan moddalar esa laboratoriyadan boshqa joyga olib chiqiladi. Yongʻin kichik boʻlsa, uning ustiga qum sepiladi, yoki jun odeyal yopib uchiriladi. Yongʻin oʻrtacha boʻlsa oʻt uchirish asboblardan foydalaniladi va tezda oʻt uchirish xodimlariga xabar beriladi.

Yongʻinda biror kishining ustboshi yona boshlasa, uni tezda jun adyolga oʻrab, alanga oʻchiriladi, kuygan yerlari kaliy permanganat eritmasi bilan yuviladi, soʻngra kuyganda surtiladigan maz surtib medpunktga olib boriladi.

7. Gazlar taʼsirida zaharlanganda tezda novshadil spirt hidlatib, ochiq havoga olib chiqiladi.

8. Shisha kesgan joy siniqlaridan tozalanadi, soʻngra yodning 3% li eritmasi tekkiziladi va sterillangan bint bilan boglanadi.

1-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINING ZICHLIGINI TURLI USULLARDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: Suyuq neft mahsulotlarining zichligini aniqlash.

Kerakli jihozlar: Neft mahsuloti, areometr, tarozi va uning toshlari, har xil hajmdagi menzurkalar, shisha idishlar.

Nazariy tushuncha

Suyuq neft mahsulotlarining zichligini aniqlash uchun tajribada quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Areometrik usul.
2. Vestfal-Mor tarozisida tortish usuli.
3. Piknometrik usul.
4. Hidrostatik usul.

Neft va neft mahsulotlarining zichligi – sinalayotgan namunaning mustaqil tavsifini ifodalash bilan bir qatorda, namunaning solishtirma refraksiyasi, tavsiflovchi omili va boshqa xossalarni aniqlashda keng qo'llaniladi.

Sanoatda aksariyat hollarda suyuq moddalarni xarakterlashda zichlik o'rniga fizikaviy konstantalardan biri bo'lgan solishtirma og'irlikdan foydalanadi. Zichlik modda massasining egallagan hajmiga nisbatidir. Bir jinsli moddalarning zichligi deb, birlik hajmda mavjud bo'lgan modda miqdori (massasi) ga aytiladi.

$$\rho = \frac{m}{V} \quad (1.1)$$

Bu kattalikni SI o'lchov birliklar sistemasidagi birligi

$$[\rho] = \frac{kg}{m^3}$$

Moddalar zichligi solishtirma og'irlik bilan bog'liq. Solishtirma og'irlik deb birlik hajmdagi modda og'irligiga aytiladi

$$d = \frac{P}{V} \quad (1.2)$$

Uning SI o'lchov birligidagi o'lchami

$$[d] = \frac{N}{m^3}. \quad (1.3)$$

Jismning og'irligi:

$$P = mg \quad (1.4)$$

ya'ni massaning erkin tushish tezlanishiga bo'lgan ko'paytmasiga teng.

Tenglamalarni solishtirsak:

$$d = \rho \cdot g \quad (1.5)$$

ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Tenglamalari bilan neft va neft mahsulotlarining zichligini aniqlash mumkin.

Jismning zichligi Yer sharining qayerida aniqlanishiga bog'liq bo'lmay, solishtirma massani o'lchash esa Yer sharining qayerida o'lchanishiga bog'liqdir.

Zichlik bilan solishtirma massaning qiymati jismning erkin tushish tezlanishi 980, 665 sm/sek²ga teng bo'lgan joydagina bir biriga to'g'ri keladi.

Rossiyada erkin tushish tezlanishining normal tushishdan farqi 0,2 % atrofida bo'ladi. Shuning uchun zichlikdan foydalanish qulaydir.

Xalqaro birliklar tizimi (SI) da zichlikning birligi sifatida kilogrammni metr kubga (kg/m^3) nisbati qabul qilingan. Amaliyotda ko'proq nisbiy zichlik qo'llaniladi. Suyuq neft mahsulotlarining nisbiy zichligi – bu o'lchamsiz kattalik bo'lib, ma'lum haroratlarda uning haqiqiy zichligini distillangan suv

zichligiga nisbati bilan ifodalanadi. Shuning uchun nisbiy zichlik ρ_n^2 simvoli bilan belgilanadi. Bunda t_1 – distillangan suvning harorati, $^{\circ}\text{C}$ (K), t_2 – neft mahsulotining harorati, $^{\circ}\text{C}$ (K), MDH davlatlarida quyidagi harorat standarti qabul qilingan: suv uchun 4°C , neft mahsuloti uchun 20°C , (ρ_4^{20}). AQSh, Angliya va bir necha davlatlarda harorat standarti neft mahsuloti va suv uchun bir xil – $15,6^{\circ}\text{C}$ (ρ_{15}^s).


Suyuqliklarning nisbiy zichligini aniqlashda piknometr, Mor-Vestfal(gidrostatik) tarozisiva turli areometrlardan foydalaniladi.

Ishning bajarilishi: Suyuqliklarning biror haroratdagi, masalan 20°C dagi zichligini topish uchun piknometr avval suv bilan to'ldirilib tortiladi; so'ng tekshirilayotgan suyuqlik bilan to'ldirilib tortiladi va bo'sh piknometrning massasini hisobga olib, ularning massalari topiladi. Zichlikni aniqlashda piknometr o'rnatilgan termostat haroratining aniqligiga katta ahamiyat berish kerak. Odatda moddaning nisbiy zichligini 4°C dagi suvning massasiga nisbatan hisoblash qabul qilingan, u taxminan 1 g/sm^3 ga tengdir.

Suvning 20°C dagi zichligi $0,998230\text{ g/sm}^3$ ga teng bo'lgani uchun nisbiy zichlik quyidagi formula bilan topiladi:

$$d_4^{20} = \frac{m}{w} \cdot 0,998230 \quad (1.6)$$

bunda t – piknometrda moddaning 20°C dagi massasi; w – xuddi shuncha hajmdagi suvning ayni haroratdagi (20°C) massasi. Nisbiy zichlikni tez aniqlash maqsadida areometrlar ishlatiladi (1.001– rasma, b).



1.1– rasm. Areometrlar: a– termometrsiz areometr; b– termometrli areometr.

Areometrning pasti kengroq bo'lib, uning tagida pitra yoki maxsus massa joylashtirilgan bo'ladi. Uning ingichkaroq yuqori qismi darajalangan shkaladan iborat. Suyuqlikning nisbiy zichligi qanchalik kam bo'lsa, areometr shunchalik chuqurga botadi. Shuning uchun areometr shkalasining yuqori qismi eng kam nisbiy zichlikni ko'rsatadi.

Ba'zi areometrlar termometrli bo'lib (1.1– rasm, b), u nisbiy zichlik aniqlanayotgan vaqtdagi haroratni ham ko'rsatib turadi.

Suyuqlik areometrning katta-kichikligiga qarab, mos silindrga areometr tushirilganda toshib ketmaydigan qilib quyiladi va suyuqlik yuzasiga to'g'ri kelgan areometr shkalasining darajasiga qarab uning nisbiy zichligi aniqlanadi.

Shuningdek, suyuqlikka kerakli xarakteristikani beruvchi maxsus areometrlar ham bor. Masalan, spirtning % miqdorini ko'rsatuvchi spirtometr, sutdagi moy miqdorini ko'rsatuvchi laktometr va boshqalar.

Neft va neft mahsulotlari uchun ham zichlik muhim fizik kattalik bo'lib, modda massasini uni hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Xalqaro birliklar tizimi (SI) da zichlikni birligi sifatida (kg/m^3) nisbati qabul qilingan. Zichlik neft va neft mahsulotlarining tarkibiga bog'liq bo'lib, ularning tuzilishiga qarab neftning ko'pgina xossalari aniqlashga imkon beradi. Neftning zichligi 0,82 dan 0,90 gacha bo'ladi.

Zichlikni bilgan holda neftning molekular massasi va issiqlik sig'imini aniqlash mumkin.

Ma'lumki, harorat oshishi bilan zichlik kamayadi. Ko'pgina neft va neft mahsulotlari uchun bu chiziqli xarakterga ega ekanligi bog'liq bo'lib, D.I. Mendeleev formulasi bilan aniqlanadi.

$$\rho_4^t = \rho_4^{20} - \alpha(t - 20) \quad (1.7)$$

bu yerda:

ρ_4^t - harorat nisbiy zichligi;

ρ_4^{20} - 20 °C dagi nisbiy zichlik;

α - nisbiy zichlikni bir gradusdagi o'rtacha harorati tuzatmasi.

Mendeleyev formulasi neft tarkibida nisbatan ko'p bo'lmagan qattiq parafinlar va aromatik uglevodorodlar saqlagan neft mahsulotlari uchun nisbatan qisqa harorat intervali 0 dan 50 °C gacha qabul qilingan.


Gaz zichligini tarozida tortish usuli bilan aniqlash

Bir yoki ikki kapillyar jo'mrakli, sig'imi esa 150 ml dan kam bo'lmagan yetarlicha kalinlikdagi dumalok tubli kolba ko'rinishidagi gazli piknometrda aniqlash olib boriladi.

Xona temperaturasi va atmosfera bosimida aniqlangan havo va gaz hajmining bevosita o'lchash bilan bu usul amalga oshiriladi.

Aniqlash usuli. Bir jo'mrakli quruq piknometr kutichaga joylashtiriladi va vakuum nasosga ochiq jo'mrakli holda

biriktiriladi. Vakuummetrni ko'rsatishini kuzatib 10 minut davomida piknometrda havo (yoki gaz) chiqariladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Gaz zichligini tarozida tortish usuli

Vakuummetrning ikkala tirsagidan simob ustuning balandliklar farqi 1mm dan katta bo'lmasligi kerak. Jo'mrakni yopib, vakuum nasosdan piknometr ajratiladi va u analitik tarozida o'lchanadi. So'ngra, piknometrni havo bilan to'ldirish uchun jo'mrak ochiladi va piknometrda havo chiqarilib va u yana o'lchanadi. Ikkala holatda ham piknometrni og'irligi havosiz holda bir xil bo'lsa u vaqtda piknometr germetik deb hisoblanadi. Aks holda piknometr yuviladi jo'mrak moylanadi va chiqarish va o'lchash takrorlanadi. Piknometrni jo'mragi sekinlik bilan ochiladi va u orqali kiritilayotgan gaz kolbadagi sath to pipetkadagi sath bilan bir xil bo'lguncha davom ettiriladi. Piknometr gaz bilan birgalikda o'lchanadi.

Quyidagi formula orqali zichligi hisoblanadi.

$$\rho = G_g - G / G_x - G \cdot 1,293 \quad (1.8)$$

Bu yerda; ρ - gaz zichligi, kg/m^3

G_g - gaz bilan birgalikda piknometrni og'irligi g.

G-havosi so'rib olingan piknometrni og'irligi g.
 G -havo bilan birgalikdagi piknometr og'irligi g.

Effuzion usul yordamida gazni zichligini aniqlash

Bu usulda ma'lum bir bosimga teng hajmdagi gaz va havoni kichik diametrli teshik orqali atmosferaga chiqish vaqtini o'lchashga asoslangan. Buning uchun quyidagi formula o'rirlidir.

$$\tau^2 / \tau^2 = Q_1 / Q_2 \quad (1.9)$$

Bu yerda; τ_1 -gazni chiqarish vaqti, τ_2 -havoni chiqarish vaqti.



1.3-rasm. Effuziometr asbob

Gaz va havoning chiqish tezligi effuziometr asbob yordamida o'lchanadi

Bu asbob ikkita toraygan qismli naydan iborat bo'lib, o'sha joyga hajmini o'lchash uchun belgi quyilgan va u trubka suvli idishga joylashtirilgandir, trubka ostki qismi ochiq ustki qismida esa 3ta yunalishda harakat qiladigan kran ikkita otvodi mavjud. Birta otvod effuziometrni gaz manbaiga ulash uchun xizmat qiladi, ikkinchisi esa tubkasimon bo'lib, uning ichida kichkina teshikli platinadan tayyorlangan bo'lib bu trubkani maxsus kalpok orqali tajriba olingandan so'ng uni yopib qo'yish kerak. Chunki, o'nga har xil chang zarralaridan muhofazalash maqsadida shunday qilish maqsadga muvofiq deb, hisoblanadi.

Agar o'sha kesik qismi ifloslansa uni aseton yoki spirt orqali yuvish kerak bo'ladi. Trubka 1 - ostki ochiq qismi kattaroq idishga joylashtirilgan bo'lib, bu trubkani ikinchi qopqoq silindrga birlashtirilgan va u shu birinchi trubkani bir xilda katta idishga turishiga imkon yaratadi. Bu katta silindr disterlangan suv bilan to'ldirilgan bo'lib, uning sathlarini kuzatish qulay bo'lishi uchun bu disterlangan suvga biror bir rang beruvchi modda bilan bo'yalgan bo'lishi kerak.

Aniqlash usuli. Uchta yo'nalishli kranning ish faoliyati bilan tanishib chiqqandan so'ng rezinali shlang yordamida bittasiga aspiratori 2 - chisiga esa havoli idishni (yemkostni) ulaymiz. Kranni rasmda ko'rsatilgan holatga keltiramiz. Aspiratori tenglashtiruvchi sklyankasini ko'tarib, 1-chi ichki - trubkaning havosining yarmi olinadi. So'ngra uch yunalish bo'yicha harakat qiladigan kranni shunday holatga quyiladiki bunda trubka bevosita atmosfera kirib, va yana trubkaning o'zi uni atmosferaga chiqarib yuboradigan bo'lishi kerak. Bu operatsiyani to 6 martagacha amalga oshirish kerak, chunki qurilma trubkasining ichki qismida oldingi tajribalardan qolgan hamma gazlarni to'la chiqarish uchun shunday qolish lozimdir. Qurilmaning ishga tayyorlangan aspiratori va aynan o'sha aspiratordan havo olinib, trubka - 1 dan suv siqib chiqarilib va kran yopiladi. Havoning temperaturasi o'lchanadi. Chap qo'lga sekundomerni olib, o'ng qo'l esa platinali plastinka teshigi (kesimiga) ta'sir ettirish uchun o'shanga quyiladi. Suvning sathi pastki belgiga yetganda sekundomer yoqilib (ishlatilib) toki suv yuqori belgiga chiqquncha vaqtni o'lchash kerak. Bu operatsiyani bir necha marta ya'ni olingan natijalarni suvning yuqorigi belgiga ko'tarilishidagi farqi 1-3 sekund bo'lgunga qadar davom ettirish kerak. Shunga muvofiq holda gazning ham shu temperatura hamda bosimida oqib o'tish vaqti aniqlanadi. Agar gaz yoki suyuqlikni oqib o'tish vaqti har bir o'tkazilayotgan tajribadan

so'ng oqib o'tish vaqti oshsa yoki kamaysa bunda qurilma yomon tozalangan yoki yuvilgan deb hisoblanadi. Tajribalarni umumlashtirishda o'rtacha arifmetik xatolarni hisoblashdan foydalaniladi.

Tekshiruvchi gaz quyidagi formula bilan hisoblanadi ;

$$Q = 1,293 (\tau_1 / \tau_2)^2 \quad (1.10)$$

bu yerda – 1,293 normal sharoitda havoning zichligi kg/m^3 .

Neft mahsulotlarining zichligini gidrostatik tortish usulida o'lchash.


Tajribaning borishi.

Gidrostatik o'lchash usuli yordamida asosan qattiq va suyuq holdagi neft mahsulotlarining zichligi aniqlanadi. Bu usul yordamida modda zichligini aniqlash Arximed qonuni asosida amalga oshiriladi. Tajriba quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Biror qattiq jism (silindr shaklidagi metall jism) og'irligi tarozi yordamida o'lchanadi va P_1 aniqlanadi.
2. Ma'lum idishga dizel yoqilg'isi solinadi va u tarozida o'lchab olinadi. Uning og'irligi P_2 aniqlanadi.
3. Havoda og'irligi aniqlangan metall silindr sekin taroziga qo'yilgan dizel yoqilg'ili idishga tushiriladi va uning suyuqlikka to'liq botishi ta'minlanadi.
4. Dizel yoqilg'isi bilan birgalikda metall silindrning og'irligi P_3 aniqlanadi.
5. Berilgan metall silindrning suyuqlikdagi og'irligi P_0 aniqlanadi.

$$P_0 = P_3 - P_2 \quad (1.10)$$

6. Berilgan silindrga ta'sir etuvchi ko'taruvchi Arximed kuchi aniqlanadi, bu kuch $F = P_1 - P_0$.



1.4-rasm. Gidrostatik tortish yo'li bilan zichlikni aniqlovchi qurilma.

7. Arximed kuchidan foydalanib suyuqlikning hajmi aniqlanadi $F = \rho \cdot g \cdot V$.
8. V hajm silindrning hajmi bo'lib $V = S \cdot h$.
9. S va h shtangensirkul yordamida aniqlangan kattaliklar orqali aniqlanadi.
10. Arximed kuchidan dizel yoqilg'isining kuchi topiladi.

Neft mahsulotlari zichligining haroratga bog'liqligi

Neft mahsulotlari uchun bir haroratda aniqlangan zichlik qiymatni topish uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$\rho_t = \rho_1 + \gamma (t_2 - t_1) \quad (1.11)$$

bunda: t_1 haroratga neft mahsulotlariga tuzatma kiritiladi va u 1-jadvalda keltirilgan.

t_2 haroratda neft mahsulotining zichligi ρ_1 bo'lsa, standart zichlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_4^{20} = [(0,99823 - 0,0012)\rho_1 + (0,0012 + \gamma)(t - 20)] = (0,9970391 + 0,0012) + \gamma(t - 20) \quad (1.12)$$

Bunda: 0,99823 suvning 20 °C dagi zichligi va bosim 760 mm Hg; ρ_1 – tarozi yoki piknometrda aniqlangan neft mahsulotining zichligi; t – zichlik aniqlangan harorat; standart sifatida neft mahsulotining zichligi 20 °C da va suvning zichligi 4 °C da qabul qilingan.

Areometrik usulda suyuq neft mahsulotlarining ichligini aniqlash Arximed qonuniga asoslangan.

O'zgarmas og'irlikdagi areometrning tuzilishi keltirilgan. U silindr ko'rinishdagi shisha idishdan iborat bo'lib uchidagi pastki qismida ma'lum og'irlikdagi sharlardan iborat. Standart areometr shisha idishining o'lchamlari keltirilgan. Shisha idish tashqi ko'rinishi simmetrik ko'rinishda bo'lishi talab etiladi. Bunday areometr neft suyuqligiga kiritilganda faqat vertikal holatda bo'lishligi ta'min etilishi lozim.

Neft mahsulotlarining zichligi atrof - muhitdagi haroratga bog'liq bo'lganligi uchun modda zichligining haroratga bog'liqligini ko'rib chiqamiz.

Bir harorattan ikkinchisiga o'tganda zichlikning o'zgarishi quyidagi formula bilan aniqlanadi¹:

$$\rho_t^2 = \rho_t^1 - \gamma(t_1 - t_1') \quad (1.12)$$

Bu yerda γ harorat 1 gradusga o'zgargandagi zichlikning harorat bo'yicha tuzatmasi. (1.13) formula (20° va 4° C dagi) neft mahsulotlari va suvning standart haroratdagi zichliklarini aniqlashda quyidagicha ko'rinish oladi:

$$\rho_4^{20} = \rho_4^1 - \gamma(20 - t_1') \quad (1.13)$$

γ kattalikning qiymatlari jadvalda keltirilgan.

1.1 -jadval

γ harorat 1 gradusga o'zgargandagi zichlikning harorat bo'yicha tuzatmasi.

Zichlik	1 °C ga o'rtacha termik tuzatma	Zichlik	1 °C ga o'rtacha termik tuzatma
0,690 - 0,06999	0,000910	0,8500 - 0,8599	0,000699
0,7000 - 0,7099	0,000897	0,8600 - 0,8699	0,000686
0,7100 - 0,7199	0,000884	0,8700 - 0,8799	0,000673

¹ Б.М.Рыбак. Анализ нефти и нефтепродуктов. Москва. Гостоптехиздат.1962. с. 887.

0,7200 - 0,7299	0,000870	0,8800 - 0,8899	0,000660
0,7300 - 0,7399	0,000857	0,8900 - 0,8999	0,000647
0,7400 - 0,7499	0,000844	0,9000 - 0,9099	0,000633
0,7500 - 0,7599	0,000831	0,9100 - 0,9199	0,000620
0,7600 - 0,7699	0,000818	0,9200 - 0,9299	0,000607
0,7700 - 0,7799	0,000805	0,9300 - 0,9399	0,000594
0,7800 - 0,7899	0,000792	0,9400 - 0,9499	0,000581
0,7900 - 0,7999	0,000778	0,9500 - 0,9599	0,000567
0,8000 - 0,8099	0,000765	0,9600 - 0,9699	0,000554
0,8100 - 0,8199	0,000752	0,9700 - 0,9799	0,000541
0,8200 - 0,8299	0,000738	0,9800 - 0,9899	0,000522
0,8300 - 0,8399	0,000725	0,9900 - 1,0000	0,000515
0,8400 - 0,8499	0,000712		

Agar zichlik 50°C dan yuqori va 0°C dan past haroratlarda eksperimental aniqlanadigan bo'lsa, ρ_4^{20} ga tuzatish uning to'g'riligiga kafolat bermaydi.

Ko'p hollarda zichlikni ρ_4^{20} holatdan ρ_{15}^{15} holatiga qayta hisoblash zarurati tug'iladi. Buning uchun quyidagi soddalashtirilgan formulani qo'llash mumkin:

$$\rho_{15}^{15} = \rho_4^{20} + 5\gamma \quad (1.14)$$

Vestfal-Mor tarozilarining ko'p qismi ρ_{20}^{20} ko'rsatkichga ega bo'lganligi, zichlik piknometr bilan o'lchanganda ham ρ_{20}^{20} hosil bo'lganligi sababli, ρ_{20}^{20} qiymatini qayta hisoblash uchun umumiy va standart qabul qilingan ρ_4^{20} ko'rsatkich quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\rho_4^{20} = [(0,99823 - 0,0012)q' + 0,0012] + \gamma(t - 20) = (0,99703q' + 0,0012) + \gamma(t - 20), \quad (1.15)$$

bunda: 0,99823 - 20°C dagi suvning zichligi;
0,0012 - 760 mm.sim.ust. bosimda va 20°C haroratdagi havonng zichligi;

q' - Vestfal-Mor tarozisi yoki piknometrda aniqlangan "ko'rinuvchi" zichlik;

t – aniqlangan zichlikli neft mahsuloti harorati.

Vestfal-Mor tarozisi yoki piknometrda aniqlanadigan “ko’rinuvchi” zichlikni faqatgina taqribiy qiymatlarda olish mumkin, chunki:

- 1) olchashlar havosiz bo’shliqda emas, havoda olib boriladi;
- 2) zichlik suvga nisbatan 4 °C da ifodalanadi, tarozi va piknometr kallibrovkasi esa 20 °C da o’tkaziladi.

1.2 -jadvalda t sinov haroratida tarozi yoki piknometr yordamida aniqlangan ρ' neft mahsulotlarining “ko’rinuvchi” zichligi tuzatmalarini, shu haroratda ularning haqiqiy zichligiga bo’lgan tuzatmalari keltirilgan.

Tuzatmalar quyidagi formula yordamida olingan:

$$\rho'_4 = 0.99703 \rho' + 0.0012$$

1.2- jadval

Mahsulotlarining “ko’rinuvchi” zichligi tuzatmalarini, shu haroratda ularning haqiqiy zichligiga bo’lgan tuzatmalari

“ko’rinuvchi zichlik”	Tuzatma	“ko’rinuvchi zichlik”	Tuzatma
0,6900 – 0,6999	0,0009	0,8500 – 0,8599	0,0013
0,7000 – 0,7099	0,0009	0,8600 – 0,8699	0,0014
0,7100 – 0,7199	0,0009	0,8700 – 0,8799	0,0014
0,7200 – 0,7299	0,0010	0,8800 – 0,8899	0,0014
0,7300 – 0,7399	0,0010	0,8900 – 0,8999	0,0015
0,7400 – 0,7499	0,0010	0,9000 – 0,9099	0,0015
0,7500 – 0,7599	0,0010	0,9100 – 0,9199	0,0015
0,7600 – 0,7699	0,0011	0,9200 – 0,9299	0,0015

0,7700 – 0,7799	0,0011	0,9300 – 0,9399	0,0016
0,7800 – 0,7899	0,0011	0,9400 – 0,9499	0,0016
0,7900 – 0,7999	0,0012	0,9500 – 0,9599	0,0016
0,8000 – 0,8099	0,0012	0,9600 – 0,9699	0,0017
0,8100 – 0,8199	0,0012	0,9700 – 0,9799	0,0017
0,8200 – 0,8299	0,0013	0,9800 – 0,9899	0,0017
0,8300 – 0,8399	0,0013	0,9900 – 1,000	0,0018
0,8400 – 0,8499	0,0013		

Sinov savollari


1. Neft va neft mahsulotlarining zichligi qanday usullar bilan aniqlanadi va uning o’lchov birligi qanday?
2. Zichlikning haroratga bog’liqligini izohlang.
3. Areometr ballasti nima vazifa bajaradi?
4. Zichlikning gidrostatik o’lchash yo’li bilan aniqlanadigan usuli boshqa usullardan qanday faqlanadi?
5. Zichlik qanday fizikaviy kattalik?
6. Zichlikning barcha sistemalardagi o’lchov birliklarini ayting.

2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINING QOVUSHQOQLIGINI ANIQLASH

Neft mahsulotlari eritmasining nisbiy qovushqoqligi viskozimetr yordamida o'lchanadi (2.1-rasm). Viskozimetr U shaklidagi shisha naydan iborat bo'lib, uning bir tirsagi kengroq bo'ladi. Ingichka tirsagiga diametri 0,7–1,0 mm li kapillyar ulangan bo'lib, kapillyarning usti 2–Z ml sig'imli shardan iboratdir. Sharning ustki qismi ham tor bo'ladi. Sharning ustki va ostki qismlariga A va V belgilar qo'yilgan. Sharning uchiga rezina nay kiydiriladida, viskozimetr termostatga joylashtiriladi.

Tekshiriladigan neft eritmasining nisbiy qovushqoqligini aniqlash uchun dastavval, toza erituvchining viskozimetr kapillyaridan oqib tushish vaqti o'lchanadi.



2.1-rasm. Viskozimetrlar a) Ostvald viskozimetri, v) Ostvald-Pinkevich viskozimetri

O'QUV QO'LLANMA



2.2-rasm. Neft mahsulotlarining kinematik yopishqoqligini VISCOMETER ASTM D 445 qurilmasida tekshirgich

Buning uchun viskozimetrga 5 ml erituvchi solinib, termostatda 20 °daqiqa saqlanadi. So'ngra erituvchi rezina nay orqali so'rilib, sharning ustki belgisi (A) dan oshguncha ko'tariladi. So'rish to'xtatilgandan so'ng, erituvchi kapillyar orqali oqib tusha boshlaydi. U sharning ustki (A) belgisiga kelganda, sekundomer yurguzib yuboriladida, erituvchi sharning ostki (V) belgisidan o'tib ketguncha ko'tiladi. Erituvchi ostki belgidan o'tganda sekundomer to'xtatiladi va erituvchining ustki belgidan ostki belgigacha tushish vaqti yozib qo'yiladi. Bu jarayon 3–5 marta takrorlanadida, natijaning o'rtacha qiymati olinadi. Shu usulda tekshiriladigan neftning har xil (0,5 % dan 0,1 % gacha) bo'lgan konsentratsiyali eritmasining oqish vaqti aniqlanadi. Nisbiy qovushqoqlik quyidagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$\eta_{inc} = \frac{t_1}{t_0} \quad (2.1)$$

Bu tenglamada:

η_{inc} – eritmaning nisbiy qovushqoqligi;

t_1 va t_0 – eritma va erituvchining oqish vaqti, sek hisobida.

O'QUV QO'LLANMA

Tekshiriladigan neft erigandan keyin erituvchi qovushqoqligining ortishi eritmaning solishtirma qovushqoqligi deb ataladi va quyidagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$\eta_{\text{rel}} = \eta_{\text{inc}} - 1 = \frac{t_1 - t_0}{t_0} \quad (2.2)$$

Neft mahsulotlarinig molekular massasi esa quyidagi tenglamadan topiladi:

$$M = \frac{1}{K_m} \cdot \frac{\eta_{\text{rel}}}{C} \quad (2.3)$$


bu tenglamada: C – eritmaning molyar konsentratsiyasi;

K_i – konstanta (uning qiymagi jadvallardan olinadi).

Shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, molekular massani bu usul bilan aniqlashda eritmaning konsentratsiyasi juda kichik bo’lishi kerak. Bu holda nisbiy qovushqoqlikning eritma konsentratsiyasiga nisbati o’zgarimas kattalik bo’lishi lozim.

Yuqorida ko’rsatib o’tilganidek, molekular massa tavsifiy qovushqoqlikni aniqlash yo’li bilan ham topilishi mumkin. Tavsifiy qovushqoqlikni aniqlash uchun tekshiriladigan neftning 0,05; 0,1; 0,2; 0,5; 0,8 % konsentratsiyali eritmaları tayyorlanib, ularning nisbiy va solishtirma qovushqoqligi aniqlanadi.

Olingan natijalar asosida solishtirma qovushqoqlikning eritma konsentratsiyasiga nisbati bilan konsentratsiya orasidagi bog’lanish grafigi tuziladi. Grafik to ordinata o’qini kesib o’tguncha davom ettiriladi.



2.3-rasm. Tavsifiy qovushqoqlikni aniqlash grafigi

Tavsifiy qovushqoqlikning qiymati grafik bilan ordinatalar o’qining koordinatalar boshigacha bo’lgan oraliqqa teng; u quyidagi tenglama asosida hisoblab topiladi:

$$[\eta] = K_v \cdot M^a \quad (2.3)$$

bu tenglamadagi K_v va a ning son qiymatlari jadvallarda berilgan bo’ladi. Ba’zi neftdan olingan polimer moddalar va erituvchilar uchun K_v va a ning son qiymatlari 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval

Neft va gazdan olingan ba’zi polimer moddalar uchun K_i bilan a ning son qiymatlari va erituvchilar

Neftdan olingan polimerlar nomi	Formulasi	Erituvchi	°C	K_i	a
Poliakrilonitril	$-\text{CH}_2-\text{CHCH}-$	DMFA	20	$1,75 \cdot 10^{-5}$	0,66
Polibo’tadien	$-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-$	toluol	25	$1,1 \cdot 10^{-5}$	0,62
Polivinilasetat	$-\text{CH}_2-\underset{\text{O}-\text{COCH}_3}{\text{CH}}-$	aseton	50	$2,8 \cdot 10^{-5}$	0,67
Polivinil spirt	$-\text{CH}-\underset{\text{OH}}{\text{CH}}-$	suv	50	$5,9 \cdot 10^{-5}$	0,67
Polivinilxlorid	$-\text{CH}_2-\underset{\text{Cl}}{\text{CH}}-$	Tetragidrofuran TGF	20	$0,26 \cdot 10^{-3}$	0,92
Poligeksametilenadipinamid	$-\text{NH}(\text{CH}_2)_6\text{NHCO}(\text{CH}_2)_4\text{CO}-$	90% li chumoli kislota	25	$1,05 \cdot 10^{-5}$	1,0
Polizobo’tilen (opanol)	$-\text{CH}_2-\underset{\text{CH}_3}{\overset{\text{CH}_3}{\text{C}}}-$	benzol	60	$11,0 \cdot 10^{-5}$	0,72
Poliizopren	$-\text{CH}_2-\text{CH}=\underset{\text{CH}_3}{\text{C}}-\text{CH}_2-$	toluol	25	$3,6 \cdot 10^{-5}$	0,65
Polikaprolaktam	$-\text{NH}(\text{CH}_2)_5\text{CO}-$	50% li sulfat kislota	20	$5,02 \cdot 10^{-5}$	0,67

Polimetil-metakrilat	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\ \\ -\text{CH}_2-\text{C}- \\ \\ \text{COOCH}_3 \end{array}$	benzol CHCl ₃	20	2,5·10 ⁻⁵	0,55
			20	0,95·10 ⁻⁵	0,76
			85	0,59·10 ⁻³	0,82
Polipropilen	$\begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{CH}- \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	toluol	20	9,6·10 ⁻⁵	0,63
Polistirol	$\begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{CH}- \\ \\ \text{C}_6\text{H}_5 \end{array}$	toluol	30	1,28·10 ⁻⁵	0,70
			30	3,7·10 ⁻⁵	0,621
Polixloropren	$\begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{C}=\text{CH}-\text{CH}_2- \\ \\ \text{Cl} \end{array}$	toluol	25	5,0·10 ⁻³	0,62
Polietilen	$-\text{CH}_2-\text{CH}_2-$	dekalin mis- ammiak	70	0,39·10 ⁻⁵	0,75
Sellyuloza	$-(\text{C}_2\text{P}_{10}\text{O}_5)_n-$	reaktivi	25	0,85·10 ⁻⁵	0,81
Nitrosellyuloza	$-(\text{C}_6\text{P}_7\text{O}_2)(\text{ONO}_2)_3-$	aseton	27	0,82·10 ⁻⁵	1,0
Etilsellyuloza	$-\text{C}_6\text{P}_7\text{O}_2(\text{OC}_2\text{H}_5)_3$	aseton	20	6,9·10 ⁻⁵	3,71
Polimetilakrilat	$\begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{CH}- \\ \\ \text{COOCH}_3 \end{array}$	aseton	20	0,55·10 ⁻⁵	1,0

Sinov savollari

1. Neft mahsulotlari eritmasining nisbiy qovushqoqligi qanday qurilma yordamida o'lchanadi.
2. Tekshiriladigan neft eritmasining nisbiy qovushqoqligini aniqlash usulini izohlang.
3. Neft mahsulotlarining molekular massasi qaysi formula bilan aniqlanadi.
4. Tekshiriladigan neft erigandan keyin erituvchi qovushqoqligining ortishi eritmaning nimasi deb ataladi.
5. Erituvchilar deb nimaga aytiladi.
6. Erituvchilarning nomlarini va xossalarini aytib o'ring.

3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFT MAHSULOTLARINING QOTISH HARORATINI ANIQLASH


Dizel yoqilg'isining loyqalanishi va qotishi. Tashqi havo harorati pasayishi bilan yuqori suyuqlanuvchi parafinlarni kristallanishi hisobiga yuqori bosimda ishlaydigan dizel dvigateli bak nasos sohasida dizel yoqilg'isini normal uzatilishi buzilishi mumkin (birinchi navbatda normal parafinlar hisobiga). Alohida kristallar o'zaro payvandlanib (birikib) to'rsimon kristall panjarani hosil qiladi, u yoqilg'ini butun hajmi bo'ylab tarqaladi va u suyuq holatda bo'lgan uglevodorodlarning asosiy qismi harakatchanligini yo'qotishi (sekinlashtirish) qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kristallangan uglevodorodlarning panjarasi yoki to'rsimon tuzilish hosil bo'lishi hisobiga dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) harakatini yo'qotishiga qotish deb atash qabul qilingan. Standartda uglevodorodlarni kristallanish jarayoni boshlanishi dizel yoqilg'isining loyqalanish harorati yoki yoqilg'i harakatlanishi yo'qolishi qotish haroratini tavsiflaydi.

Loyqalanish harorati – bu harorat, suvsiz tiniq dizel yoqilg'isini sovish jarayonida ko'z yordamida ko'rib bo'lmaydigan dastlabki loyqalanish belgisi hosil bo'lishidir.

Qotish harorati – bu haroratda dizel yoqilg'isini standart qurilmada 55° burchakka burilganda 1 daqiqa davomida harakatlanish kuzatilmaydi.

Dizel yoqilg'isini loyqalanish va qotish harorati bo'yicha xizmat qilishini baholash yoqilg'ini sovutilganda probirka devorlarida kristallar o'sishi paydo bo'lishi bilan belgilanadi.



3.1-rasm. Dizel yoqilg'isining loyqalanish va qotishharoratini aniqlash asbobi:

1-o'rganilayotgan yoqilg'ili probirka; 2-probirka; 3-haroratdan himoyalangan qobuq; 4-kalsiy xlorid; 5-sovituvchi aralashma; 7,9-termometrlar; 8-tiqqin.

Yig'ilgan asbob shtativga o'rnatilib vertikal holatga keltiriladi. Tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isini (neft mahsuloti) solingan asbobni sovutish aralashmasiga tushirib -35 ± 5 °C gacha sovutiladi. Sovutish aralashmasi sifatida etanol bilan qattiq uglerod (IV)-oksid yoki kerakli haroratni ta'minlaydigan boshqa reagentlar qo'llaniladi. Sovituvchi aralashma harorati dizel yoqilg'isini (neft mahsuloti) uchun taklif qilinayotgan qotish haroratidan 5 °C ga past bo'lishi kerak. Sovutish aralashmasi harorati $\pm 1,0$ °C aniqlikda ushlab turiladi.

Qachonki, tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isini (neft mahsuloti) tegishli qotish harorati belgisiga kelgandan so'ng asbob 55 °C burchakka buraladi va shunday holatda sovutish aralashmasida 1 daqiqa davomida ushlab turiladi. So'ngra asbob sovutish aralashmasidan olinadi, probirka tezda toza material bilan artiladi va dizel yoqilg'isiga tushirilgan termometr meniski (ko'rsatkichi) qayt etiladi.

Agar dizel yoqilg'isi meniski aralashib ketsa dizel yoqilg'isi solingan probirka shtativ muvtasidan ajratiladi va qaytadan suv

hammomida $50 \pm 1,0$ °C gacha qizdiriladi. Keyingi aniqlash oldingi haroratdan 5,0 °C dan past haroratda olib boriladi. Dizel yoqilg'isiga tushirilgan termometr meniski o'zgarмай qolganda qotish harorati belgilanib izlanish to'xtatiladi.

Tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) qotish harorati chegarasini aniqlash 5 °C aniqlikda bo'lguncha, o'rganish haroratini 2,0 °C ga kamaytirib yoki oshirib qayta-qayta aniqlanadi.

Dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) meniski o'zgarмай qolguncha o'rganish davom ettiriladi. Bu harorat qayt etiladi va bu harorat tahlilqilinayotgan dizel yoqilg'isini qotish harorati hisoblanadi. Dizel yoqilg'isi qotish haroratini aniqlash uchun ikkita parallel tajriba qo'yiladi.

Ikkinchi sinov birinchi sinovga nisbatan 2,0 °C yuqori haroratda o'tkaziladi. Ikkala parallel sinovning o'rtacha arifmetik qiymati natijasi tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) qotish harorati deb qabul qilinadi. Natijalar orasidagi farq 2,0 °C dan ortmasligi lozim.

2. Qotish haroratini aniqlashning standart usuli. Asboblar va reaktivlar: Uzunligi 160 ± 10 mm va ichki diametri $20 \pm 1,0$ mm bo'lgan shisha probirka, uzunligi 130 ± 10 mm va ichki diametri $50 \pm 2,0$ mm bo'lgan shisha probirka, termometrlar, suv hammomi, shtativ, sulfat kislota yoki oleum, etanol, qattiq uglerod (IV)-oksid.

Qotish haroratini aniqlash GOST 20287-75 bo'yicha amalga oshiriladi. Usulning mohiyati shundan iboratki, tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) dastlab qizdiriladi, so'ngra dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) harakatchanligini yo'qotguncha sovutiladi.

Suvsizlantirilgan dizel yoqilg'isi (neft mahsuloti) namunasi uzunligi 160 ± 10 mm va ichki diametri $20 \pm 1,0$ mm bo'lgan toza quruq shisha probirkani halqali belgisigacha probirka devoriga tegizmasdan solinadi. So'ngra probirkaga po'kakli tiqin va qotish haroratiga mos tegishli termometr o'rnatiladi. Bunda termometr

probirkani o'rtasigacha tushirildi, uning rezervuari probirka ostidan 8–10 mm masofada joylashadi. Termometr harakatlanmasligi uchun ikkinchi g'ovak tiqqin o'rnatiladi, u termometr pastki qismi o'rtasiga biriktiriladi.

Tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'ili (neft mahsuloti) probirka va termometr suv hammomiga joylashtiriladi va $50 \pm 1,0$ °C gacha qizdiriladi. So'ngra probirka suv hammomidan olinadi, quruq material bilan artilib, po'kak tiqin yordamida uzunligi 130 ± 10 mm va ichki diametri $50 \pm 2,0$ mm bo'lgan shisha probirkaga solinib shtativ muvtasiga qotiriladi. Agar tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'ili (neft mahsuloti) qotish harorati 0 °C dan past bo'lsa, probirka oldindan 0,5 – 1,0 ml sulfat kislota, oleum yoki boshqa qurituvchi bilan chayiladi. Probirkadagi quritgich havodagi namni yutish uchun zarur va u quyi haroratda yoqilg'ini bakdan dvigatelga doimiy uzatilishini ta'minlaydi. Tajribalar natijasida shu aniqlandiki, har qanday dizel yoqilg'ili (neft mahsuloti) loyqalanish harorati tashqi havo haroratidan 3–5 °C dan yuqori bo'lganda va qotish harorati 10–15 °C dan yuqori bo'lganda qo'llanilishi mumkin.

Sinov savollari

1. Dizel yoqilg'isining loyqalanish va qotish haroratini aniqlashdan maqsad nima.
2. Loyqalanish harorati nima.
3. Loyqalanish harorati nima.
4. Qotish haroratini aniqlashning standart usulini tushuntiring.
5. Dizel yoqilg'ili (neft mahsuloti) loyqalanish harorati uning tarkibiga bog'liqmi.
6. Tahlil qilinayotgan dizel yoqilg'isini (neft mahsuloti) tegishli qotish harorati belgisiga kelgandan so'ng asbob necha °C burchakka buraladi.

4-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFTNING FRAKSION TARKIBINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: suyuq yoqilg'i, erituvchilar va tiniq neft mahsulotlarini haydovchi qurilmalarning ish jarayoni bilan tanishish va tajribaviy yo'l bilan bu mahsulotlarni olish.

Kerakli jihozlar: xom neft mahsuloti, benzin, ligroin, kerosin, reaktiv va dizel yoqilg'ilarini ajratuvchi qurilma.

Neft va neft mahsulotlarini bo'laklab haydash uslublari, ularning tarkibini aniqlash va izlanish uchun asosiy yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday izlanish neftning texnik qiymati haqida mulohaza qilish hamda motor yoqilg'isining ekspluatatsion sharoitini aniqlash imkoniyatini beradi.

Kimyoviy jihatdan bir jinsli suyuqliklarni o'rganishda ularni qaysi qurilma yordamida haydash ahamiyatsiz, negaki haydash natijasi qurilma konstruksiyasi bilan emas, balki haydalayotgan suyuqlikning qat'iy belgilangan va doimiy harorati bilan aniqlanadi. Turli uglevodorodlar va boshqa organik birikmalarning murakkab aralashmalardan iborat neft mahsulotlarini haydash natijalariga qurilmalarning konstruksiyasi ta'sir ko'rsatadi.

Neft va neft mahsulotlarini haydash uchun mo'ljallangan tajribaviy qurilmalar uch xil tipda bo'ladi:

- 1) rektifikatsiyasiz uzlukli ishlaydigan qurilmalar;
- 2) rektifikatsiyasiz uzluksiz ishlaydigan qurilmalar;
- 3) rektifikatsiyali uzlukli ishlaydigan qurilmalar.

Ushbu qo'llanmada rektifikatsiyasiz uzlukli ishlaydigan qurilmalar bilan tanishib chiqamiz.

Fraksiyalash deb, murakkab aralashmalarni oddiy tarkibli yoki aloxida (individual) tuzilishiga ega bo'lgan komponentlarga ajratishga aytiladi. Neftni turli xil usullar bilan shunday ajratish,

neft moddalarning fizik - kimyoviy xossalari o'rtasidagi farqni mujassamlaydi.

Bu maqsadlarda, ko'p hollarda, qaynash haroratining farqi (haydash, rektifikatsiya); asosan molekular massaga bog'liq bo'lgan bug'lanish tezligi (molekular haydash va yupqa qatlamli bug'lanish); turli g'ovakli jismlarda adsorbsiyaga moyilligi (xromatografiya); turli erituvchilarning erituvchanligi (ekstraksiya); (eritmalaridan kristallanish) erish temperaturasi va boshqalar. Ba'zida fraksiyalashda alohida usullar umumlashiriladi; masalan, ekstraksiya va haydash (ekstraktiv haydash (razgonka), yoki, adsorbsiya va rektifikatsiya (gipersorbsiya), adsorbsiya va ekstraksiya (mumli moddalarni taxlil qilish) va xokazolar.

Neftlarni texnik taxlil qilishda motor yoqilg'ilari va uglevodород gazlarini fraksiyalashning asosiy usuli - bu qaynash temperaturasi bo'yicha ajratishdir, ya'ni haydash va rektifikatsiya.


Standart apparatlarda neft mahsulotlarini razgonka qilib fraksiyon tarkibini aniqlash.

Qaynashning boshlanish temperaturasi va ayniqsa qaynash temperaturasi 10% yoqilg'ini to'liq ishga tushirish xossasini karakterlaydi. Bu temperatura qancha past bo'lsa, yoqilg'ida yengil bug'lanuvchi moddalar shuncha ko'p va bir muncha past temperaturalarda sovuqda dvigatelni ishga tushirish shuncha yengil bo'ladi. Razgonka ma'lumotlari asosida dvigatellarni eng past temperaturalarda ishga tushirish emperik formulaga ega hisoblanadi.

Yoqilg'ining to'liq bug'lanishi muhim ahamiyatga ega. Berilgan standart razgonkada yoqilg'ining qaynash temperaturasi ($t - \text{выипание } 90,97 - 98 \%$) va qaynashning oxirgi temperaturasi yaxshi karakterlanadi. Bu temperaturalarning ko'tarilishi bilan yoqilg'ining to'liq bug'lanishi kamayadi. Uning

dvigatel silindrlariga bo'linishida tengsizlikdan, surkov moylarini siqish, yoqilg'i va moy sarfini ko'tarishi va oxirida dvigatelning ishdan chiqishini tezlashishini keltirib chiqaradi.

Erituvchilarni, benzinlarni, yuqori oktanli komponentlarini, kerosinlarni, dizel yoqilg'ilarini va yashil moylar (saja ishlab chiqarishdagi xomashyo) larni razgonka qilish 4.1- rasmda ko'rsatilgan apparatda GOST 2177 - 66 bo'yicha o'tkaziladi.



4.1.-rasm. Laboratoriya sharoitida neftni haydashni Engler qurilmasi:

1-Vyurs kolbasi, 2-termometr, 3-sovutgich, 4,6-suv solingan joyi,5-sovutgich hamomi, 7-o'lchagich idish, 8-asbest to'r, 9-g'ilof.

Qurilmaning tavsifi

Qurilma quyidagi qismlardan iborat:

1. Engler shisha kolbasi.
2. Qalinligi 0,5 mm, shtativning ikki nuqtasiga mahkamlangan kolba joylashishi uchun tayyorlangan temir qoplama. Qoplamaning olinadigan qismida uning pastki qirrasidan boshlab kolbaning chiqarish trubkasi uchun tirqish qoldirilgan. Tirqishning uzunligi 120 ± 5 mm.

Qoplam quyi qismining yuqori tomoniga uchta vintli metall halqa biriktiriladi. Halqada qoplamni metall shtativga mahkamlash uchun vintli qisqich mavjud. Qoplarning yon

tarafida yonish mahsulotlarini chiqarish uchun mo'ljallangan, diametri 15 – 20 mm bo'lgan ikkita doiraviy tirqish mavjud. Metall halqaning tashqi tomonida joylashgan diskiga qalinligi 3 – 5 mm va diametri 100 mm li asbest qatlam joylashtiriladi. Bu qatlamda benzin va ligroinni haydash uchun diametri 30 mm li yoki kerosin, reaktiv va yengil dizel yoqilg'ilarini haydash uchun diametri 50 mm li doiraviy tirqish o'yilgan. Og'ir dizel yoqilg'isini haydash uchun 40 – 50 mm li oval tirqishli asbest qatlamli qurilma qo'llaniladi.

3. Cho'zilgan latun trubkadan tayyorlangan va metall vannaga kavsharlangan, suv kiritish va chiqarish trubkalari bilan ta'minlangan sovutgich.

4. 0 °C dan 360 °C gacha bo'limlarga bo'lingan, to'liq botirilganda 10 dan darajalangan, uzun o'ringa o'rnatilgan termometr. Termometr ko'rsatkichlari simob chiqadigan ustunga tuzatma kiritishni talab etmaydi.

5. 20 °C dan darajalangan 100 ml li o'lchov silindri.

6. Gaz bilan ishlaydigan yoki issiqlikni boshqaruvchi sezuvchan boshqargichli Bartel tipidagi yoki reostatli elektr isitgich. Elektr isitgich qoplamaning quyi qismiga o'rnatilgan bo'lishi mumkin; isitgich sifatida xuddi shunday tigel pechi ham qo'llanilishi mumkin. Isitgich yoki pechning konstruksiyasi asbest qatlam va qoplanning yuqori qismining aniq joylashishini ta'minlashi lozim.

Haydash jarayonini boshlashdan avval, sovutgich trubkasini uzun simli yumshoq latta bilan oldingi haydashdan qolgan suyuqlik izlari artiladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Benzinni haydashda sovutgich vannasi muz bo'laklari bilan to'ldiriladi va sovutgich trubkasi botgunga qadar suv solinadi.

Sovutgichdan suv to'kilmasligi uchun idish tubiga kavsharlangan quyi trubkaga qisqichli kauchuk trubkaning kichik bo'lagi kiygiziladi.

Haydashni davom ettirishda vannada 0 °C dan ± 5 °C gacha harorat ushlab turiladi. Ligroin yoki kerosinni haydashda sovutgichning chiqaruv trubkasiga kauchukli trubka kiygiziladi. Pastki trubkadan uzluksiz suv yuborib turiladi va yuqori trubkadan chiqariladi, bunda chiqayotgan suvning harorati 30° dan oshmasligi lozim. Benzinni haydashda muz bo'lmagan holda yuqoridagidek, sovutgich orqali suv yuborishga ruxsat etiladi.

2. Quruq va toza silindrda 20 ± 3 °C haroratga ega bo'lgan, suvsizlantirilgan neft mahsulotidan 100 ml o'lchab olinib, yengil benzin bilan yuvib olingan va havo bilan quritilgan Engler kolbasiga suyuqlik kolbaning chiqarish trubkasiga tegmaydigan qilib quyiladi. Quyilayotgan mahsulot miqdorini silindrning quyi meniski bo'yicha hisoblanadi, bunda ko'z suyuqlik sirti darajasida ushlanadi. Sinalayotgan mahsulotni 20 °C gacha sovutish (yoki qizdirish) odatda sig'imi 250 – 300 ml bo'lgan, suvli hammomga botirilgan (suvning harorati 18 – 22 °C) yassi tubli kolbada olib boriladi. Sovutilayotgan yoki qizdirilayotgan mahsulotning haroratini o'lchash uchun kolbaning tubiga qadar qo'yilgan termometr joylashtirilgan tiqin bilan kolba mahkamlanadi.

3. Tekshirilayotgan mahsulot solingan haydash kolbasiga tiqinda termometr shunday o'rnatiladiki, bunda simob sharchasining yuqori chegarasi kolbaning chiqarish trubkasining quyi chegarasi darajasidan pastda bo'lishi lozim; shundan so'ng, kolba qoplanning pastki yarmidagi asbest qatlamga o'rnatiladi. Sovutgich trubkasi qaytadan artiladi va so'ngra kolbaning chiqarish trubkasini sovutgich bilan tiqin yordamida sovutgich trubkasiga 25 – 40 mm gacha kiradigan va uning devoriga tegmaydigan qilib o'rnatiladi, kolbani esa, qoplanning yuqorigi

olinadigan qismi bilan yopiladi. Barcha ulanayotgan qismlarga kollodiy surtiladi. Engler kolbasining vertikal holatda bo'lishini ta'minlash lozim, termometr ham kolbaga xuddi shunday vertikal mahkamlangan bo'lishi kerak.

4. Neft mahsulotini kolbaga quyish uchun xizmat qiladigan o'lchov silindri quritilmasdan, sovutgich trubkasi tagiga qo'yiladi va paxta bilan yopiladi. Sovutgich trubkasi silindrga 25 mm gacha kirishi kerak, bunda trubka 100 ml belgidan pastda bo'lmastligi lozim.

5. Benzinni haydash jarayonida silindr uning darajalangan qismiga teng darajagacha suv solingan stakanga qo'yiladi. Silindr suvli stakanda suzmasligi uchun uning pastki qismiga taqa shaklidagi yuk qo'yiladi. Haydash jarayonida stakandagi suvning harorati 20 ± 3 °C bo'lishi lozim.

6. Isitgich yoqiladi va kolba ostiga joylashtiriladi. Alanga shunday boshqariladiki, bunda benzin va ligroinni haydashda birinchi tomchi 5 minutdan oldin va 10 minutdan keyin tushmasligi, kerosin, reaktiv va yengil dizel yoqilg'ilarini haydashda 10 minutdan oldin va 15 minutdan keyin tushmasligi, va nihoyat, og'ir dizel yoqilg'ilari haydashda 10 – 20 minut orasida tushadigan bo'lishligini ta'minlash lozim. Mahsulotni qabul qiluvchi idishga birinchi tomchi tushganda termometrning ko'rsatkichi "qaynashning boshlang'ich nuqtasi" sifatida belgilanadi. Shundan so'ng, haydash tezligi sekundiga 2 tomchi tushadigan (1 minutda 4 ml dan kam va 5 ml dan ko'p bo'lmaydigan) holatda boshqariladi.

7. Haydashning boshlanish haroratini o'lchab olingach, o'lchov silindri unga distillyat oqishi uchun sovutgich trubkasi oxiriga o'rnatiladi. Haydash tezligini tomchilar miqdori bilan tekshirilganda sovutgich trubkasining oxiri silindr markazida joylashishi zarur.

Og'ir dizel yoqilg'ilari uchun boshlang'ich haydash jarayonini birinchi 8 – 10 ml ni haydash tezligi minutiga 2 – 3 ml qilib olib boriladi. Keyin jarayon odatiy tezlik bilan davom ettiriladi.

Kerakli tezlikni kuzatish ishning ahamiyatli qismi hisoblanadi; aks holda olingan natijalar noto'g'ri bo'ladi.

8. Parafinli neft mahsulotlaridan olingan yoqilg'ilarni haydashda sovutgichga beriladigan suvning tezligi haydash vaqtida chiqib ketadigan suvning harorati 250 °C gacha bo'lishi 30 dan 40 °C chegarada, 250 °C dan keyin 60 dan 75 °C gacha chegarada bo'ladigan qilib to'g'rilanadi.

Benzin va ligroinni haydashda silindrdagi suyuqlik sathi 90 ml bo'lganda isitgichning alangasi haydashning tugash vaqti 3 minutdan kam va 5 minutdan ko'p bo'lmaydigan qilib boshqariladi. Kerosin, reaktiv va yengil dizel yoqilg'ilarini haydashda isitgich alangasi intensivligi o'zgartirilmaydi, lekin suyuqlik sathi 95 ml bo'lgandan haydash tugaguncha o'tgan vaqt belgilanadi. Agar bu vaqt 3 minutdan oshsa, tajriba to'xtatiladi va takroran o'tkaziladi. O'lchov silindrida mahsulot turi bo'yicha miqdoriy natijaviy suyuqlik sathiga erishilgach, shu hajmga to'g'ri keladigan harorat belgilab olinadi va isitgich o'chiriladi. Isitgichning o'chirilish vaqtini haydashning tugashi deb belgilanadi.

9. Neft mahsulotining fraksiyali tarkibini quyidagicha aniqlanadi. Agar tekshirilayotgan neft mahsulotining spetsifikatsiyasida chiqishning hajmiy foizi berilgan va ularga mos haroratni aniqlash talab qilinsa, haydash jarayoni vaqtida silindrdagi suyuqlik sathi talab qilingan sathga yetganda haroratlari o'lchab boriladi. Agar mahsulotlar turkumiga mos keluvchi harorat berilgan bo'lib, ularga mos chiqishlar aniqlanishi talab etilgan bo'lsa, u holda silindrga to'plangan suyuqlikning

sathi termometr kerakli haroratni ko'rsatgan vaqtda o'lchab olinadi.

10. Mahsulotlar turiga mos keluvchi natijaviy haroratga yetilgach isitgich o'chiriladi, sovtgichdagi neft mahsulotlarining kondensat-langan bug'lari oqib tushishi kutiladi va hosil bo'lgan hajm belgilanadi.

Texnik shartlarda berilgan eng yuqori haroratga yetmasdan qaynashga erishadigan kerosin, reaktiv va yengil dizel yoqilg'ilarini haydashda jarayon silindrdagi suyuqlik sathi 97,5 ml ga yetguncha davom ettiriladi; so'ng qizdirish to'xtatiladi va harorat yozib olinadi. 5 minut davomida distillyat oqib tushguncha kutiladi va silindrdagi suyuqlikning hajmi yozib olinadi.

Agar silindrdagi suyuqlikning hajmi 98 ml dan kam bo'lsa haydash takrorlanadi.

Agar texnik shartlarda tekshirilayotgan neft mahsulotiga qaynash tugagandan keyin qoldiq me'yori belgilangan bo'lsa, u holda fraksiyali tarkibning eng yuqori haroratiga yetgach, silindrdagi suyuqlikning hajmi yozib olinadi va kolbani qizdirish simob ustuni ma'lum balandlikka yetib to'xtaguncha davom ettiriladi (shu balandlikdan keyin simob pastga tushadi).

11. Qizdirish to'xtatilgandan 5 minut o'tgach qoplarning yuqorigi qismi yechib olinadi, kolbadagi qaynoq qoldiq 0,1 ml bo'limli darajalangan o'lchov silindriga solinadi, 20 ± 3 °C ga cha sovutiladi va hosil bo'lgan hajm qoldiq sifatida belgilanadi. 100 ml li chegara va qoldiq yig'indi hamda hosil bo'lgan mahsulot orasidagi farq haydash yo'qotilishi hisoblanadi.

Ikkita parallel olib boriladigan tajribada haydash boshlanguncha 4 °C gacha chekinish, fraksiyali tarkibning natijaviy va oraliq nuqtalari uchun 2 °C ga yoki 1 ml hamda qoldiq uchun 0,2 ml ga chekinish ruxsat etiladi. Hisoblashlar 0,5 ml va 1 °C gacha aniqlikda bajariladi.

Agar bosim 770 mm.sim.ust. dan yuqori yoki 750 mm.sim.ust. dan past bo'lgan hollarda barometrik bosimga tuzatmalar kiritiladi. Tadqiqot ishlarida va arbitraj holida normal, ya'ni 760 mm.sim.ust. dan farqli bo'lgan istalgan bosimga tuzatmalar kiritiladi. Normal bosimga keltirish Sidney-Yung formulasi bo'yicha amalga oshiriladi.

$$C = 0,00012 (760 - P) (273 + t) \quad (4.1)$$

bunda: C – belgilangan haroratga kiritilishi zarur bo'lgan, mos tuzatma, 0 °Cda;

P – amaldagi barometrik bosim, mm.sim.ust.da.

4.1-jadvalda Sidney-Yung formulasi asosida hisoblangan tuzatmalar keltirilgan (0 °C da).

4.1-jadval

Sidney-Yung formulasi asosida hisoblangan tuzatmalar

Harorat chegarasi, °C	Har 10 mm.sim. ust. bosim farqiga tuzatma	Harorat chegarasi, °C	Har 10 mm.sim. ust. bosim farqiga tuzatma	Harorat chegarasi, °C	Har 10 mm.sim. ust. bosim farqiga tuzatma
10 – 30	0,35	130 – 150	0,50	250 – 270	0,64
30 – 50	0,38	150 – 170	0,52	270 – 290	0,66
50 – 70	0,40	170 – 190	0,54	290 – 310	0,69
70 – 90	0,42	190 – 210	0,57	310 – 330	0,71
90 – 110	0,45	210 – 230	0,59	330 – 350	0,74
110 – 130	0,47	230 – 250	0,62	351 – 360	0,75

Barometrik bosim 760 mm.sim.ust dan past bo'lgan holda tuzatmalar qo'shiladi, 760 mm.sim.ust. dan yuqori bosimda olib tashlanadi.

Fraksiyali tarkibi ma'lum bo'lmagan neft mahsulotini haydashda uning maksimal chiqishini aniqlagan holda, biroq maksimal harorat o'lchanmasdan, birinchi marta haydash bajariladi. Ikkilamchi haydashda o'lchov silindridagi haydalgan mahsulotning hajmi birinchi haydashdagidan 1 mm ga kam

bo'lguncha olib boriladi. Bunda termometr ko'rsatgan harorat belgilanadi va isitgich o'chiriladi, jarayon avvalgi holdagidek davom ettiriladi.

Termometr ko'rsatkichining to'g'riligi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Neft mahsulotlari ayrim xollarda tarkibida suv saqlaydi, ular haydalanishdan oldin tindirib ajratilishi lozim. Yengil dizel yoqilg'ilarini oxirgi quritish kichik zarrali natriy sernokislo yoki kalsiy - xlor granularidan o'tkaziladi va filtrlanadi.

Yoqilg'ilarning og'ir sortlarini quritish uchun 50 °C gacha qizdiriladi va yirik kristallardan iborat osh tuzining donador qatlamida bir necha bor filtrlanadi.

Sinov savollari

1. Haydash qurilmasiga qaysi vaqtda isitgich qo'yiladi?
2. Benzin yoki ligroin qanday sharoitda ajratib olinadi?
3. Dizel yoqilg'isi va reaktivlar qanday sharoitda ajratib olinadi?
4. Og'ir dizel yoqilg'isi qanday sharoitda ajratib olinadi?
5. Tegishli ma'lumotnomalarga asoslangan holda haydash harorati bo'yicha mahsulot nomini aniqlang.

5-LABORATORIYA MASHG'ULOTI. NEFTDAGI SUV MIQDORINI ANIQLASH

Jarayonni amalga oshirishdan maqsad - neftni qayta ishlashga berishdan oldin suv va tuzdan tozalash. Ushbu jarayon talab darajasida olib borilsa neftni qayta ishlashda qo'llaniladigan jixozlarni karroziyaga uchrash darajasini pasaytirish, katalizatorlar aktivligi pasayishini oldini olish va neft mahsulotlarining sifatini yaxshilash mumkin. Neftni qayta ishlash zavodlariga keladigan neftlardagi suvning katta qismi 2-5 mkm diametrdagi suv tomchilaridan hosil bo'lgan emulsiya ko'rinishida bo'ladi. Neftli muhitdan tomchi yuzasiga smolasimon moddalar, asfaltenlar, organik kislotalar va ularni neftda erigan tuzlari adsorbsiyalanadi. Shuningdek, qiyin suyuqlanadigan parafinlarni yuqori dispers zarralari neftga aralashgan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan adsorbsiya qavati qalinlashib, uning mexanik mustahkamligi ortadi va emulsiya susayishi kuzatiladi. Bu xolatni oldini olish maqsadida ko'pgina konlarda neftga deemulgator qo'shiladi. Deemulgatorlardan neftni suvsizlantirishni termokimyoviy va elektrokimyoviy usullarida foydalaniladi. Deemulgatorlar sarfi har bir tonna neft uchun 0,002 -0,005 % (massa) oralig'ida bo'ladi.

Neftni deminerallashuning korrozion aktivligini kamaytirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, xom-ashyo holdagi neft tarkibidagi mineral tuzlarni maksimal darajada ajratib olishdir.

Neft tarkibidagi mineral tuzlar ikki ko'rinishda: 1) uglevodorodlar bilan aralashgan kristallar; 2) Neft tarkibidagi suvda erigan tuzlarning emulsiyasi ko'rinishida bo'ladi.

Neft tarkibidagi mineral tuzlar erigan suv tomchisi (emulsiya) o'lchami 1/10 mikron bo'lib, u emulsiya zarrachasi

Aniqlash usuli. Tekshiriladigan sinov namunasi 5min. davomida aralashtiriladi, parafinli mahsulotlar dastlab 40 °Cga qizdiriladi. Kolba 1 ga 0,1 g aniklikda o'1 changan 100 g mahsulot va 100ml erituvchi kuyilib aralashtiriladi. Bir tekis qaynashi uchun kolbaga bir nechta shisha kapillyarlar joylashtiriladi.

Qurilma yig'ilib, shtativga qotirilgach, sovutgichga suv quyilib, kolba elektropitka yoki gaz gorelkasi bilan ehtiyot bo'lib qizdiriladi. Isitish shunday tashkil qilinadiki, sovutgichdan yig'ich idishga 1 sek.da 2 – 4 tomchi kondensat tushsin. Sovutgichga ko'p suv quyilmasligi lozim. Chunki bunda trubka ichida havo tarkibidagi namlik kondensatsiyalanishi mumkin. Ma'lum vaqtdan so'ng yig'ich idish suyuqlik bilan to'lib, ortiqchasi kolbaga qaytib tusha boshlaydi. Agar tekshiralayotgan mahsulot tarkibida suv bo'lsa, kolbada bug'lanib, sovutgichda kondensatsiyalanib, erituvchi bilan birga yig'ichga tushadi va zichliklar farqi hisobiga qatlamga ajraladi.

Haydash standart tezlikda olib borilsa, suv kolbaga qaytib tushmaydi. Yig'ichda suv miqdori o'zgarmay qolgach va erituvchining yuqori qatlami shaffoflashgach, haydash to'xtatiladi. Agar kam miqdordan suv haydalsa, erituvchi tez tinimaydi. Bunday holda yig'ich idish 20 min. davomida issiq suvda tiniguncha ushlab turiladi.

Yig'ich shisha devoriga yopishgan suv tomchilari yupqa shisha tayoqcha bilan pastga suriladi.

So'ngra haydalgan suv miqdori o'lchanadi. Agar neft yoki neft mahsulotining suvlanganlik darajasi 10 % ortiq bo'lsa, 100 g namunadagi suv yig'ichga sigmaydi. Bu holda dastlab mahsulot miqdori 50, 25 yoki 10 g.gacha kamaytiriladi.

Suvning % lardagi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$x = \frac{V}{G} \cdot 100$$

Bu yerda V - yig'ichdagi suv hajmi, ml; G – namuna miqdori, g.

Neftdan olinadigan polimerlardagi suv miqdorini Din va Stark usulida aniqlash.

Neft tarkibida turli xil minerallar mavjud bo'lib, bularga suv, tuz, turli xil mexanik aralashmalar misol bo'la oladi. Suv neft va neft mahsulotlari tarkibida erigan yoki emulsiya holda bo'ladi. Neftdan olinadigan polimer tarkibidagi suvni miqdorini hozirgi kunda Din va Stark usulida aniqlanadi, chunki bu usulda xatolik kam bo'ladi. Bu suv miqdorini aniqlashning bir necha usullari bor. Ulardan eng oddiysi tekshirilayotgan polimer namunasini byuksga solib, massasi o'zgarmay qolguncha quritishdir. Tekshirilayotgan polimerdan 2 g o'zgarmas massadagi byuksga solinib, termostatga qo'yiladi va 105 °C da 2 soat quritiladi. So'ngra byuksning qopqog'i yopilib, eksikatorida sovutiladi va analitik tarozida tortiladi. Byuks yana termostatga qo'yiladi va 1 soat o'tgach yana tortiladi. Bu jarayon polimer namunasining massasi o'zgarmay qolguncha takrorlanadi.

Tekshirilayotgan polimer namunasining massasi o'zgarmay qolgandan so'ng, undagi suv miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{g-b}{g} \cdot 100;$$


bu formulada:

x – tekshirilayotgan polimerdagi suv miqdori, % hisobida;

g – namunaning quritilishdan oldingi massasi, g hisobida;

b – namunaning qurigandan keyingi massasi, g hisobida.

Tekshirilayotgan polimerdagi suvning miqdori organik moddalar yordamida haydash yo'li bilan ham aniqlanadi (5.2-rasm).



5.2-rasm. Polimer tarkibidagi suv miqdorini Din va Stark usuli bo'yicha aniqlash asbobi:

1- kolba; 2- suv yig'gich; 3- sovutgich.

Rasmda ko'rsatilgan 500 ml hajmli kolba (1) ga tekshirilayotgan polimerdan 100 g, bir necha bo'lakcha pemza va yengil benzin yoki erituvchidan 100 ml solinadi. Kolbaga suv yig'gich (3) nay (2) orqali ulanib, uning ustiga qaytarma sovutgich (4) o'rnatiladi va kolba sekin asta qizdiriladi. Kolba qizdirilayotgan vaqtda suv yig'gichga har sekunda 2-4 tomchi suyuqlik tushishi kerak. Jarayon idish (3) dagi suvning miqdori o'zgarmay qolguncha va suv ustidagi organik suyuqlik tinguncha davom ettiriladi. So'ngra idishdagi suv uy haroratigacha sovutilib, uning hajmi o'lchanadi.

Tekshirilayotgan polimerdagi suvning miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{v}{g} \cdot 100$$

bu formulada: x- polimerdagi suv miqdori, hisobida;

g- namunaning massasi, g hisobida;

v - idishga yig'ilgan suvning hajmi, ml hisobida

Sinov savollari

1. Neftdagi suv miqdorini aniqlash jarayonini amalga oshirishdan maqsad nima.
2. Neftni deminerallashning korrozion aktivligini kamaytirishning asosiy usullari nimalar.
3. Neft tarkibidagi mineral tuzlar qaysilar.
4. Neft tarkibidagi emulgatorlar qaysilar.
5. Suvni aniqlashning miqdoriy usuli izohlang.
6. Neftdan olinadigan polimerlardagi suv miqdorini Din va Stark usuli.
7. Polimerdagi suvning miqdori qanday formuladan hisoblab topiladi.


6-LABORATORIYA MAHG'ULOTI.

NEFT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI AROMATIK UGLEVODORODLAR MIQDORINI ANIQLASH

Aromatik uglevodorodlar miqdorini anilin nuqtasi usuli bilan aniqlash teng hajmdagi benzin fraksiyasi va anilinning bir-birida to'liq eriydigan haroratni anilin nuqtasi deb aytiladi. Anilin nuqtasining qiymati fraksiyada aromatik uglevodorodlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi: aromatik uglevodorodlarning miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha anilin nuqtasi past bo'ladi.

Anilin quruq va toza haydalgan bo'lishi kerak, chunki suvning borligi anilin nuqtasini oshiradi, anilinni oksidlanish mahsulotlarining borligi esa uni pasaytiradi.

Ishni bajarish tartibi. Probirkaga pipetka yordamida anilin va benzining tekshirilayotgan fraksiyasidan 5 ml dan solinadi. Probirkani bo'linmalarining qiymati 0,1-0,2 °C bo'lgan termometr va aralashtirigich o'tgan po'kak to'lqin bilan yopiladi. Termometr simob ustunining o'rtasi anilin bilan benzin fraksiyasi ajratish chegarasi chizig'ida bo'lishi kerak.



6.1-rasm. Anilin nuqtasini aniqlash asbobi:

1-anilinuchun aralashtirigich; 2-anilin va fraksiya probirkasi; 3-suv hammomi; 4-suv uchun aralashtirigich; 5-elektr isitgich.


Aralashmali probirkada havo hammomi bo'lishi kattaroq o'lchamli probirkada po'kakli tiqinda o'rnatiladi; bu kattaroq o'lchamli probirkani suv hammomiga shtativ qisqichda o'rnatiladi.

Suv hammomining isitilishini asbest to'rli elektr isitgichda anilinning fraksiya bilan aralashmasini aralashtirigich bilan aralashtiriladi.

Probirkadagi aralashma nihoyatda bir jinsli va tiniq bo'lgan vaqtda haroratni belgilab elektr isitgichni o'chiriladi. Probirkadagi aralashma soviy boshlaydi. Aralashmani aralashtirigich bilan doim aralashtirib turib, unda bir tekisdagi loyqalanish paydo bo'lishini kuzatiladi. Termometr simob ustunini to'liq yopgan loyqalanish paydo bo'lgan lahzadagi eritma harorati belgilanadi. Aynan shu harorat anilin nuqtasi deb ataladi. Anilin bilan fraksiya aralashmasining to'liq aralashishi va loyqalanish harorati odatda 0,1 °C dan ko'p bo'lmagan qiymatga farq qiladi.

So'ngra tahlil qilinayotgan benzin fraksiyasidan aromatik uglevodorodlarni sulfat kislota yordamida chiqarib yuboriladi.

Aromatik uglevodorodlar sulfat kislota bilan o'zaro ta'sirlanib suvda yaxshi eriydigan sulfokislotalarni hosil qiladi:



Sulfokislotalar hosil bo'lish reaksiyasi qaytardir, shuning uchun sulfokislotalar suv bilan parchalanadi, ayniqsa isitilganda, bunda yana sulfat kislota va aromatik uglevodorodlar hosil bo'ladi. Aromatik uglevodorodlarni chuqur ajratib olish uchun reaksiya paytida ajralib chiqayotgan suvni bog'lab olish qobiliyatiga ega bo'lgan kuchli sulfat kislota yoki sulfat kislotaning fosfat angidridi bilan aralashmasini qo'llash talab

qilinadi. Fraksiyani dearomatlash uchun 250 ml hajmli ajratish voronkasiga birin-ketin 98-99 % sulfat kislotadan 90 ml va fraksiyadan 30 ml quyiladi. Ajratish voronkasini tiqin bilan yopiladi va aralashmani 30 daqiqa davomida chayqatiladi, vaqt-vaqti bilan hosil bo'layotgan gazlarni chiqarib yuborish uchun jo'mrak ochiladi.

Voronka suv yoki muz bilan sovutiladi chayqatish tugagandan keyin ajratish voronkasini 20-30 daqiqaga tindirish uchun shtativga o'rnatiladi. Voronkadagi suyuqlik qatlamlarga bo'lingandan so'ng jo'mrakni ochib pastdagi nordon qatlamni to'liq quyib olinadi. Agar fraksiyada aromatik uglevodorodlarning miqdori ko'p ekanligi aniqlansa unda qo'shimcha tozalash o'tkaziladi, ammo bunda kislota miqdorini 2 marta kam olinadi. Nordon qatlamni chiqarib tashlab, dearomatlangan qismni neytral reaksiya hosil bo'lguncha suv bilan yuviladi, undan keyin kalsiy xlorid qatlami orqali filtrlab suvchizlantiriladi.

So'ngra dearomatlangan fraksiyaning anilin nuqtasi (T_2) ni aniqlanadi.

Fraksiya (masalan, benzolli)ning aromatik uglevodorodlar bo'lgungga qadar va ularni chiqarib yuborgandan keyingi anilin nuqtasini bilgan holda ularning miqdorini og'irlik foizlarida (A_b) hisoblanadi.

$$A_b = K(T_2 - T_1) \quad (6.1)$$

Bu yerda; T_2 , T_1 farqini anilin nuqtasining depressiyasi deyiladi;

K-depressiyaning bir darajasiga to'g'ri keladigan koeffitsient; u aromatik uglevodorodlarning foiz miqdoridan iborat bo'lib yoqilg'i noaromatik qismining anilin nuqtasini 1°C ga pasaytiradi.

K-koeffitsient qiymatiga quyidagilar ta'sir qilishi mumkin: fraksiyada mavjud bo'lgan aromatik uglevodorodlarning

strukturasini va miqdori fraksiyaning noaromatik qism kimyoviy tarkibi eksperimental yo'l bilan aniqlangan turli fraksiyalarning K koeffitsientlari 6.1-jadvalda keltirilgan.

6.1-jadval

Aromatik uglevodorodlar miqdorini aniqlash uchun anilin koeffitsientlari

Fraksiyalar nomi	Aromatik uglevodorodlar bo'lgan fraksiyalar uchun	
	20 % gacha (og'ir)	20-40 % (og'ir)
Benzolli	1,20	1,18
Toluolli	1,22	1,20
Ksilolli	1,30	1,22
Simolli	1,43	1,35

Xuddi shu yo'l bilan barcha to'rtta fraksiyalardagi aromatik uglevodorodlar miqdorini aniqlanadi va aromatik uglevodorodlarning benzindagi miqdorlari quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$A = \frac{A_b \cdot a_b + A_t \cdot a_t + A_k \cdot a_k + A_s \cdot a_s}{100} \quad (6.2)$$

Bu yerda a_b , a_t , a_k , a_s benzindagi tegishli ravishda benzolli, toluolli, ksilolli va simolli fraksiyalarning og'irlik foizlardagi miqdori.

A_b , A_t , A_k , A_s fraksiyalarda aromatik uglevodorodlarning og'irlik foizlardagi miqdori.

Yengil va o'rta neft mahsulotlari tarkibidagi aromatik uglevodorodlarning miqdorini tarozida tortib aniqlash usuli

Kerakli asboblari va kimyoviy reaktivlar: NaOH 0,5% suvli eritma, fenoltalein 1% li spirtli eritma, distillangan suv, TS-1 10 ml/g. Bo'lgichli voronka, laboratoriya tarozisi, vakuum hosil qilish uchun surkov moyi (smazka), tsilindr.

Tajribaning borishi

Bo'lgichli voronka jo'mragini va qopqog'ini yaxshilab moylaymiz, uni quruq holda laboratoriya tarozida o'lchaymiz. Tsilindrda 10 ml\l TS-1 (avia benzin) o'lchab olib bo'lgichni voronkaga quyib laboratoriya tarozida qayta o'lchab og'irliklarni natijalarini yozib boramiz.

Olingan TS-1 ni ustiga 30 ml/l H_2SO_4 o'lchab uni ustiga quyamiz (ehtiyotlik bilan quyiladi H_2SO_4). Kislota quyilgandan so'ng yana qaytadan laboratoriya tarozisida o'lchaymiz va yozib boramiz.

Bo'lgichli voronkani qopqog'i va jo'mragi berkligi tekshirib, gorizontal holda tutib 30 minut qo'lda chayqab turiladi (yaxshi aralashish uchun shunday qilinadi). So'ng voronkani tindirish maqsadida vertikal holda 1 soat osib quyiladi voronkani pastki qismiga H_2SO_4 va yuqori qismiga neft mahsuloti uglevorodlari ajralishi uchun 1 soatdan so'ng voronkani jo'mrag qismiga H_2SO_4 quyiladi (qo'yish uchun aloxida idish olinadi). Voronkani pastki qismida qolgan H_2SO_4 maxsus filtr qog'ozlari bilan tozalanadi, voronkani ichiga qolgan TS-1 bilan laboratoriya tarozida o'lchaymiz. Voronka ichidagi TS-1 maxsus kolba yoki stakanga quyiladi va voronka qopqog'i va jo'mragini stakan ichida ushlagan holda 100 ml atrofida distirlangan suv bilan chayqaladi. Stakandagi aralashmaga 3 tomchi fenolftalin indikatorini tomiziladi va aralashtiriladi. So'ngra $NaOH$ 5 %, bilan titrlaymiz. Titrlash uchun ketgan miqdorni yozib olamiz. Titrlash toki mahsulotimiz rangi ochiq pushti rangga kelguncha titrlanadi va titrlashga ketgan $NaOH$ miqdori yozib olinib u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_k = V_1 \cdot 0,02452 \cdot K \cdot 100 / C_k \quad (6.3)$$

V_1 - $NaOH$ titrlangan qiymati; K - $NaOH$ titrlash koeffitsienti;

0,02452 - doimiy koeffitsient; C_k - H_2SO_4 ning konsentratsiyasining koeffitsienti. So'ngra aromatik uglevorod miqdorini aniqlash formulasiga qo'yamiz.

$$X = [m_1 - (m_2 - m_k)] 100 / m_1 \quad (6.4)$$

m_1 - voronkani TS-1 bilan o'lchangan qiymati.

m_2 - H_2SO_4 to'kishdan keyingi o'lchangan qiymat.


m_k - voronka devorlarida qolgan H_2SO_4 qiymati.

Aromatik uglevorodlar miqdorini tortma usulda aniqlash




Usulning mohiyati tekshirilayotgan benzin fraksiyasi massasini 98,5-99 % sulfat kislota bilan ishlanishidan iborat bo'lib, sulfat kislota alken va aromatik uglevorodlarni ajratib oladi. Aromatik uglevorodlarning miqdorini sulfat kislota ajratib oladigan uglevorodlar yig'indisi hamda yod yoki bromli son bo'yicha aniqlangan alken uglevorodlar miqdori orasidagi farq bilan aniqlanadi.

Alken va aromatik uglevorodlarni ajratib olish sulfat kislota yaxshi eriydigan mahsulotlarni hosil qilish bilan boradigan kimyoviy reaksiyalar natijasida sodir bo'ladi.

Alken uglevorodlari hatto suyultirilgan (50-70 %) sulfat kislota bilan ham tasirlashib sulfat kislota yaxshi eriydigan birikmalarni hosil qiladi.





Harorat ortganda uglevorodlarda yaxshi eritadigan va sulfat kislota yomon eriydigan o'rta efir, spirt va polimerlarning hosil bo'lish reaksiyalari borishi mumkin.



Shuning uchun sulfat kislota bilan ishlashni tasirlashayotgan aralashmani uzluksiz sovutib turgan holda o'tkazish kerak.

Neft mahsulotlari sulfat kislota bilan ishlanganda doimo gazlarning jadal ajralib chiqishi va sulfat kislota oksidlash natijasida aralashmaning ishi kuzatiladi.



Ishni bajarish tartibi. Oldindan 0,01 g aniqlik gacha o'lchangan toza quruq ajratish voronkasiga taxminan 10 ml atrofidagi tekshirilayotgan neft fraksiyasidan solinadi. Voronkani ikkinchi marta o'lchab olgan massasining og'irligi o'lchanadi.

So'ngra fraksiyali ajratish voronkasiga 30 ml sulfat kislota quyiladi va 30 daqiqa davomida chayqatib turiladi, chayqatib turganda vaqt-vaqti bilan jo'mrak orqali hosil bo'layotgan gazlarni chiqarib turiladi.

Aralashma tindirilgandan so'ng pastdagi sulfat kislotali qatlam ajratib olinadi. Ajratish voronkasining oqimi naychasidagi qolgan qismini filtr qog'ozi yordamida olinadi.

Tekshirilayotgan fraksiyali ajratish voronkasini 0,01 g gacha bo'lgan aniqlik bilan o'lchanadi va sulfat kislota bilan

ishlangandan so'ng tekshirilayotgan mahsulotning sulfat kislota bilan ishlangandan keyingi og'irligi hisoblanadi.

So'ngra voronkani vertikal ravishda o'rnatib konussimon kolbaga solinadi. Ajratish voronkaning tiqini va voronkaning ichki yuzasini yuvish yordamida distillangan suv bilan yuvib bu suvni o'sha konussimon kolbaga yig'iladi.

Kolbadagi suyuqlikni bir necha tomchi fenolftalin ishtirokida 0,5 n li NaOH bilan och pushti rang paydo bo'lguncha titrlanadi.

Ajratish voronkasining devorlarida qolgan 98,5% li sulfat kislota miqdorini (G_k) quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$G_k = \frac{V \cdot 0,02452 \cdot 100}{98,5} = 0,0249 \cdot V \quad (6.5)$$

Bu yerda, V-titrlashga ketgan o'yuvchi natriy eritmasi hajmi (aniq 0,5 n) eritmaga hisoblaganda, ml da 0,02452-o'yuvchinatriy aniq 0,5 n eritmasiga to'g'ri keladigan sulfat kislota miqdoriga da

Fraksiyadagi aromatik uglevodorodlarning miqdorini og'irlik foizlarda (A_b) quyidagi formulalar bilan hisoblanadi.

$$A_b = \frac{[G_1 - (G_2 - G_k)] \cdot 100}{G_1} - H_b \quad (6.6)$$

G_1 - tekshirilayotgan fraksiyaning sulfat kislota bilan ishlanganga qadar og'irligi g da.

G_2 - tekshirilayotgan fraksiyaning sulfat kislota bilan ishlangandan keyin og'irligi g da.

G_k - ajratishi voronkasining devorlarida qolgan sulfat kislota miqdori g da.

N_b - mazkur benzin fraksiyasidagi alken uglevodorodlarning og'irlik foizlari miqdori. Benzindagi aromatik uglevodorodlarning miqdorini yuqorida keltirgan formula yordamida hisoblanadi.

Siklan va alkan uglevodorodlarning miqdorini aniqlash

Benzin fraksiyasining dearomatlanishi olib boriladi. So'ngra fraksiyaga dearomatlangan qismining anilin nuqtasini aniqlanadi va siklan uglevodorodlar miqdorini 1-variantdagi kabi hisoblab chiqariladi.

Fraksiyadagi alkan uglevodorodlarning miqdorini 100 hamda og'irlik foizlarda ifodalangan alken, aromatik va siklan uglevodorodlar miqdori yig'indisi orasidagi farq kabi hisoblanadi.

$$P = 100 - (M + A + N) \quad (6.7)$$

Sinov savollari

1. Neft tarkibidagi aromatik uglevodorodlarni aytib bering.
2. Aromatik uglevodorodlarni aniqlash usulini tushuntirib bering.
3. 4,5 – formulalarni tushuntirib bering.
4. Tajribaning bajarilish tartibini aytib bering.
5. Siklan va alkan uglevodorodlarning miqdori qanday aniqlanadi.

7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR MIQDORINI ANIQLASH


Alken uglevodorodlarning miqdorini yod soni usuli yordamida aniqlash. Yodsoni deb, 100 g benzinda saqlangan alken uglevodorodlarga birikadigan yodning grammlar miqdoriga aytiladi.

Ishni o'tkazishtartibi. Ikkita oldindan o'lchangan shisha ampulalarga benzinning tekshirilayotgan fraksiyasidan 0,2-0,4 g miqdorida solinadi.


Ampulalarni to'ldirgandan keyin og'zi kavsharlanadi va olingan namunalarning aniq og'irligini aniqlash uchun yana o'lchanadi.

Hajmi 0,5 l bo'lgan silliqlangan tiqinli bankaga 5 ml etil spirti quyib unga ampulalardan birini ehtiyotkorlik bilan tushiriladi. Ampulani bankada sindirib, shisha tayoqcha bilan maydalanadi, undan so'ng tayoqchani 10 ml etil spirti bilan stakan ichida yuviladi. Undan so'ng stakanga byuretkadan 0,2 n yodning spirtidagi eritmasidan 25 ml quyiladi. Yodning yo'qolishini kamaytirish uchun 10 % kaliy yodining suvdagi eritmasi bilan oldindan qo'llangan tiqin bilan bankani zich yopiladi va stakan ichidagi aralashma ehtiyotlik bilan chayqatiladi. Undan so'ng stakanga 150 ml distillangan suv solib uni tiqin bilan yopiladi va aralashmani 5 daqiqa davomida jadal aralashtirib turiladi.

Aralashtirilgandan so'ng tiqin va stakan og'zini distillangan suv bilan yuviladi, stakan tiqin bilan yopiladi va aralashma 5 daqiqa tindirib qo'yiladi. Yod alken uglevodorodlar bilan quyidagi tenglamaga binoan ta'sirlashadi.



Ortiqcha yodni aralastirib turib 0,1 n natriy tiosulfat eritmasi bilan titrlanadi. Titrlaganda stakandagi suyuqlik och sariq rangga kirganda unga 3 ml yangi tayyorlangan 0,5 % kraxmalning suvdagi eritmasini qo'shiladi va ko'k binafsha rang yo'qolguncha titrlashni davom ettiriladi. Yodning natriy tiosulfat bilan reaksiyasi quyidagicha kechadi.



Yod sonini hisoblab chiqish uchun nazorat tajribasini o'tkazish zarur, u huddi shunday o'tkaziladi faqatgina namunasiz benzin fraksiyasida.

Tekshirilayotgan fraksiyaning yod soni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$ICh = \frac{(V - V_1) \cdot T \cdot 100}{G} \quad (7.1)$$

Bu yerda V - nazorat tajribasida titrlashga ketgan 0,1 n natriy tiosulfat eritmasining hajmi, ml da;

V_1 - benzol fraksiyasi bilan tajribasidagi titrlashda sarflangan 0,1 n natriy tiosulfat nisuvli eritmasining hajmi ml da

T - yod grammlarida ifodalangan 0,1 n natriy tiosulfat eritmasining titri.

G - benzin fraksiyasi massasi g da.

Benzin fraksiyasining yod soni deb, ikkita paralel bajarilgan aniqlashlar natijalaridan o'rtacha arifmetik qiymatni olinadi, bu natijalarning farqlari yod sonining qiymati bo'yicha kichik natijaning qiymatidan 10 % dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Tekshirilayotgan benzin fraksiyasidagi alken uglevodorodlar miqdorini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$H_b = \frac{ICh \cdot M}{254} \quad (7.2)$$

Bu yerda ICh - yod soni,

M - benzin fraksiyalarida bo'lgan to'yinmagan uglevodorodlarning o'rtacha malekulyar og'irligi uni aviatsion benzinlar uchun 100 deb, avtomobil benzinlar uchun 120 deb qabul qilingan;

254 - yodning molekular massasi.

Agar yod soni 2 kam bo'lsa, benzin fraksiyasida alken uglevodorodlar deyarli yo'q deb, hisoblanadi.

Benzindagi alken uglevodorodlarning miqdorini yuqorida ko'rib chiqilganga o'xshab hisoblab topiladi.

$$H = \frac{H_b \cdot a_b + H_c \cdot a_c + H_k \cdot a_k + H_s \cdot a_s}{100} \quad (7.3)$$

Sinov savollari

1. Neft tarkibidagi aromatik uglevodorodlarni aytib bering.
2. Aromatik uglevodorodlarni aniqlash usulini tushuntirib bering.
3. 4,5 - formulalarni tushuntirib bering.
4. Tajribaning bajarilish tartibini aytib bering.
5. Yod sonini hisoblab chiqish uchun nazorat tajribasini o'tkazish qanday.

8 – LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

NEFTNING KISLOTA SONINI ANIQLASH

Umumiy kislota soni (TAN, umumiy kislota soni) - bu bir gramm yog'dagi kislotalarni neytrallash uchun zarur bo'lgan kaliy gidroksid miqdori bilan belgilanadigan kislotalik qiymati. Bu qiymat xom neftning muhim sifat ko'rsatkichidir. TAN qiymati neftni qayta ishlash zavodida korroziya bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi.

Umuman olganda, termometrik titrlash usuli neft mahsulotlarida umumiy kislota sonini (TAN) oddiy va to'g'ridan-to'g'ri aniqlash uchun ishlatiladi. Bu usul mavjud qo'lda va potentsiometrik usullarga nisbatan nihoyatda aniq natijalar beradi. Termometrik titrlash usuli regidratsiyani talab qilmaydigan va ifloslanish va matritsa ta'siridan xoli bo'lgan texnik xizmat ko'rsatmaydigan harorat sensoridan foydalanadi. Ushbu protsedura minimal namuna tayyorlashni talab qiladi. Natijalar ASTM D664 standartiga muvofiq potentsiometrik titrimetrik protseduradan olingan natijalar bilan yaqindan mos keladi, ammo termometrik titrlash usuli takrorlanuvchanlik va tahlil tezligida ancha ustundir va aniqlashlar juda qisqa vaqt ichida yakunlanadi.

Umumiy kislota sonini (TAN) aniqlash neft sanoatida sifat nazorati nuqtai nazaridan juda muhim, bu ko'plab xalqaro standartlarda qayd etilgan. Bu qiymat neftning degradatsiyasi (yog'ning qarishi) va korroziyani rag'batlantiruvchi xususiyatlar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Odatda kuchli asoslar bilan suvsiz titrlash bilan aniqlanadi va mineral moyning grammiga zaif kislotali moddalarni neytrallashda iste'mol qilinadigan kaliy gidroksid miqdori sifatida aniqlanadi.

Standart usullarda so'nggi nuqtani aniqlash indikatorning rangi o'zgarishi (masalan, ASTM D974 standarti) yoki pH

elektrodi (masalan, ASTM D664 standarti) yordamida instrumental ravishda amalga oshiriladi. Manuel usullarda ko'p rangli eritmada rangpar oxirgi nuqtani kuzatish ko'pincha oson emas. Shisha membrana pH elektrodidan foydalangan holda instrumental usullarda suvsiz muhitda ishlash oson emas. Yangi termometrik titrlash usuli bu kamchiliklarni bartaraf etadi. Jarayon juda tez, mustahkam va ishonchli. Bu usul suvsiz muhitda zaif kislotali turlarni spirt aralashmasidagi natriy gidroksid eritmasi bilan titrlashdan iborat.

Kislota sonini aniqlash. Neft va neft mahsulotlari asosida olinadigan polimerlarda kislota soni ularning tarkibida karbon, oksikarbon va fenollarning borligi bilan xarakterlanadi. Har birining sig'imi 250 ml bo'lgan konussimon ikkita kolbaga kaliy gidroksidning spirtidagi 0,1 n li eritmasidan 25 ml va 1 g polimer solinadi. Shu bilan bir vaqtda, polimer solinmagan nazorat tajriba ham o'tkaziladi. 2 soatdan keyin aralashma xlorid kislota 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi (indikator sifatida fenoltalein olinadi). Kislota soni quyidagi formuladan topiladi:

$$\kappa.c. = \frac{(a-b) \cdot T \cdot 100^0}{g}$$

bu yerda: *a*– xlorid kislota nazorat tajribada titrlashga sarf bo'lgan 0,1 n li eritmasi hajmi, ml hisobida;

b– xlorid kislota asosiy tajribada titrlashga sarf bo'lgan 0,1 n li eritmasi hajmi, ml hisobida;

T–xlorid kislota eritmasining kaliy gidroksid bo'yicha titri, g/ml hisobida;

g– namunaning massasi, g hisobida.

O'tkazilgan ikki tajriba natijalarining o'rtacha qiymati olinadi.

Polimerning kislota sonini aniqlash. Polimer tarkibidagi karboksil guruhlar kislota sonini bildiradi, kislota soni ishqor bilan titrlash usulida aniqlanadi.

